

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI



SH.E.MAMARAJABOV, V.N.SATTOROV

**«KASBIY PEDAGOGIKA» FANIDAN
MASALALAR TO‘PLAMI, KEYS-STADI, VAZIYATLI TOPSHIRIQLAR,
O‘QUV LOYIHALARI**

Toshkent-2016

Ushbu uslubiy qo‘llanma Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti uslubiy kengashida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi (Bayonnoma №).

Ushbu uslubiy qo‘llanma «Kasbiy pedagogika» fanining namunaviy va ishchi dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, “Kasb ta’limi” yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy izlanuvchilar va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mualliflar: Sh.E.Mamarajabov — p.f.n., dotsent
V.N.Sattorov — p.f.n, dotsent

Taqrizchilar: TTYESI «Pedagogika va jismoniy madaniyat»
kafedrasi professori f.f.d. F.Abdurahmonov
TDPU «Umumiy pedagogika» kafedrasi dotsenti, p.f.n.
S.Umarov

KIRISH

«Kasbiy pedagogika» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish ularda kasbiy pedagogik bilimlarni oshirish, kasb-hunar ta'limi mazmunini tanlash, aniqlashtirilgan maqsadlarni belgilash, muammoli vaziyatlarni yaratish, turli darajadagi nazorat ishlarini ishlab chiqish, texnologik xarita tuzish kabi malakalarni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. U o'quv rejasi va fan dasturida ko'zda tutilgan zarur bilimlar va ko'nikmalarning talabalar tomonidan oqilona, kam vaqt va kam kuch sarflab o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Talaba mustaqil ishi – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishini bajarishdan **asosiy maqsad** – talabalarni semestr davomida fanni uzluksiz o'rganishini tashkil etish, olingan bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kelgusidagi darslarga tayyorgarlik ko'rish, aqliy mehnat madaniyatini, yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topish va qabul qilishni shakllantirish hamda ushbu tariqa institutda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga erishishdan iborat.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrda–semestrga ko'nikmalar hosil bo'lishiga muvofiq ravishda o'zgarib, oshib borishi lozim, ya'ni, talabalarining topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularning topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondoshishga o'rganib borishi kerak.

«Kasbiy pedagogika» fani bo'yicha talabalar mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda **quyidagi shakllardan** foydalanish mumkin:

- fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rib borish;
- belgilangan mavzular bo'yicha ishlanmalar tayyorlash;
- testlar yechish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish bo'yicha keyslar yechish;
- munozarali savollar va topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- axborot resurs markazida belgilangan mavzular bo'yicha nazariy, amaliy va statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va muayyan tizimga solish;
- belgilangan mavzular bo'yicha zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida taqdimot materiallari tayyorlash;
- talabalar turar joyidagi ma'naviyat xonasi, kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalar markazi imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil o'qish jarayonlarida ishtirok etish;
- kafedralar va fakultetlarning ilmiy hamda ilmiy-uslubiy ishlarida ishtirok etish va boshqalar.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish. Fanning xususiyati, talabalarining bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib, ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va

h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn o'qituvchiga himoya qilish orqali topshiriladi.

Talabalar ilmiy ijodi o'quv jarayonlaridan biri sifatida o'qitish, bilim berish va tarbiyalash vazifalarini bajarishda o'z xususiyatlariga ega. Talaba tadqiqot faoliyatiga jalb qilinib, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, statistik va boshqa materiallarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, o'rganilayotgan hodisani tanqidiy baholashga o'rganadi, nazariyani amaliyot bilan bog'laydi va h. k.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar tayyorlash vazifasi topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga yoki talabalar guruhiga topshirish ham mumkin.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga mustaqil ish sifatida muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish vazifasi topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali jihatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi ham tanlashi mumkin) ilmiy maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish» bo'yicha yo'riqnomada belgilangan quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Talabalar mustaqil ishlarini ikki ko'rinishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etish.

2. Talabalar mustaqil ishlarini tizimli ravishda, ya'ni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab tashkil etilishini ta'minlash.

3. Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi muhim jihatlarga e'tibor qaratish:

- talabaning o'qish bosqichi;
- muayyan fanning o'ziga xos xususiyati, o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasiga;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasiga;
- fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasiga;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasiga;
- mustaqil ish uchun topshiriqlar kursdan-kursga o'tish bilan shakl va hajm jihatidan o'zgarib borishiga;
- mustaqil ish fan xususiyati hamda talabaning akademik o'zlashtirish darajasiga va qobiliyatiga mos holda tashkil etish.

Mustaqil ishni amalga oshirishda talaba bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- zarur ma'lumotlarni izlab topish uchun qulay usullarni va vositalarni aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar hamda me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;

- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar davrasida himoya qilish.

I. BOB «KASBIY PEDAGOGIKA» FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN VAZIYATLI TOPSHIRIQLAR, KEYS TOPSHIRIG'I VA O'QUV LOYIHALARI

1.Mavzu: O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limini rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogikaning o'rni

Topshiriq-1. O'zbekiston Respublikasida kasb ta'limi islohotlarining maqsadi, vazifalari va uni amalga oshirish samaradorligini mazmunan tushuntirib bering va jadvalni to'ldiring. Har bitta bosqichni o'z o'rniga qo'yib, izchil ketma-ketlik o'rnatilsin.

Maqsad	Vazifalar	Samaradorlik

Topshiriq-2

Sobiq Ittifoq va mustaqil O'zbekistonning kasb-hunar ta'limining qiyosiy tahlilini qiling, javoblarni asoslang.

№	Sobiq Ittifoq davrida kasb-hunar ta'limi	Mustaqillik davrida O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi
1		
2		
3		
4		

2-Mavzu: Kasbiy pedagogika fanining falsafiy-metodologik asoslari

Topshiriq-1. Ma'lumki har bir fanning falsafiy-metodologik asoslari mavjud. "Kasbiy pedagogika" fanining falsafiy-metodologik asoslari nimalardan iborat? Javobingizni asoslang.

Topshiriq-2. Kasbiy pedagogikada izlanish metodlari nimadan iborat?

Topshiriq-3 Kollej kasb ta'limi o'qituvchisi A.Nazarov o'z kasbiy mahoratini oshirish maqsadida kutubxonaga tashrif buyurdi va pedagogik-psixologik hamda faniga oid adabiyotlarni olib, kerakli ma'lumotlarni o'zlashtirdi. Ushbu holatda u qanday tadqiqot metodidan foydalangan? Javobingizni asoslang.

Topshiriq-4. Guruh rahbari S.Jo'raeva kollej o'quvchisi S.Shokirovni o'rganish maqsadida uni darslarda o'zini tutishi, jamoat ishlarida qatnashishi, do'stlari va oila a'zolari bilan munosabatiga oid ma'lumotlarni to'pladi. Ushbu holatda u qanday tadqiqot metodidan foydalangan? Javobingizni asoslang.



Topshiriq-5. Kollej psixologi M.To'rayeva tarbiyasi og'ir o'quvchilardan bo'lgan M.Safarovni o'z xonasiga taklif qildi. O'quvchining o'qishdagi va oilaviy muammolari xususida savol-javob o'tkazdi. Ushbu holatda kollej psixologi qaysi tadqiqot metodidan foydalandi?

3- Mavzu: O'zbekistonda va chet elda kasbiy pedagogikaning rivojlanishi

Topshiriq-1. O‘zbekistonda va biror boshqa davlatning kasb-ta’limi tizimining qiyosiy tahlilini o‘tkazing. Tahlil natijalari asosida jadvalni to‘ldiring.

O‘zbekistonda kasb-hunar ta’limi tizimi	 davlatida kasb-hunar ta’limi tizimi

Topshiriq-2. O‘zbekiston va biror boshqa davlat kasb-hunar ta’limi tizimining qiyosiy tahlili asosida ularning o‘xshashligi va farqli tomonlarini ko‘rsating va shu asosda diagrammani to‘ldiring.



4- Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi islohotlari

Topshiriq-1. «Klaster» metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. “Ta’lim tizimi” tushunchasiga klaster tuzing.

Topshiriq-2. Uzlaksiz ta’lim turlarini ayting va ularning har birining mohiyatini tushuntirib bering.

Topshiriq-3. “Shaxs- milliy modelning asosiy komponenti” tushunchasiga izoh bering.



Topshiriq-4. «Klaster» metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. “Shaxs” tushunchasiga klaster tuzing.

Topshiriq-5. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish bosqichlarida belgilangan vazifalar asosida jadvalni to‘ldiring

<i>I-bosqich (1997-2001yy.)</i>	<i>II- bosqich (2001-2005yy.)</i>	<i>III- bosqich (2005 va undan keyingi yillar)</i>

5- Mavzu: Uzlaksiz ta’lim tizimida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining o‘rni va ahamiyati

Topshiriq-1. Umumiy o‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o‘xshashligi va farqlarini ko‘rsatib bering va diagrammani to‘ldiring.



Topshiriq-2. “Zamonaviy kasb ta’limi o‘qituvchisi” modelini yarating va uning mohiyatini tushuntirib bering.

6- Mavzu: Ta’limni standartlashtirish. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni, maqsad va vazifalari

Topshiriq-1. Sinkveyn beshlik degan ma’noni anglatadi. Tanlangan tushuncha 1 so‘zdan iborat ot, 2 so‘zdan iborat sifat, 3 so‘zdan iborat fel bilan ifodalanadi, tushunchaga nisbatan munosabat bildiriladi va uni bir so‘zdan iborat sinonimi topiladi.

Quyidagi tushunchalarni sinkveyn texnikasidan foydalangan holda tahlil qiling: DTS, o‘quv reja, o‘quv dastur, ishchi dastur, uslubiy ta’minot.

Topshiriq-2. Reyting baholash tizimini “T-jadval” sxemasi asosida izohlab bering.

afzalliklari	kamchiligi

Topshiriq-3. Mutaxassisligingizga tegishli biror fandan ishchi dastur tayyorlash texnikasini namoyish qilib bering.

7- Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari

Topshiriq-1. «Klaster» metodi aniq ob’ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. “O‘zbekistonda xalq xo‘jaligi” tushunchasiga klaster tuzing.

Topshiriq-2.

- S-kuchli tomoni
- W- kuchsiz tomoni
- O- imkoniyatlari
- T- xavf-xatar

SWOT-tahlil texnologiyasiga o‘z sohangizdan misol ishlab chiqing.

Topshiriq-3.

“Zamonaviy kichik mutaxassis” modelini yarating.

8- Mavzu: O‘rta maxsus kasb hunar ta’limi bitiruvchilarini ishlab chiqarishga moslashuvi.

Topshiriq-1. Keng malakali mutaxassis-xodimning modelini yarating.

Topshiriq-2. Jadvalni to‘ldiring

№	Yakka holda ishlab chiqarishning o‘ziga xos jihatlari	Guruhlab ishlab chiqarishning o‘ziga xos jihatlari	Ommaviy ishlab chiqarishning o‘ziga xos jihatlari
1			
2			

3 n			
--------	--	--	--

Topshiriq-3.

Fikringizcha kasb-hunar kolleji bitiruvchisining ishlab chiqarishga moslashuviga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat? Ketma-ketlik asosida izohlang.

Topshiriq-4.

Mutaxassiligingizdan kelib chiqqan holda kasb-hunar kolleji bitiruvchisi- "kichik mutaxassis"ning ishlab chiqarishga moslashuvi bosqichlarini ishlab chiqing.

9- Mavzu: Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari

Topshiriq-1. Ishlab chiqarish ta'limi bosqichlariga oid quyidagi jadvalni to'ldiring:

№	1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich
1			
2			
3			
n			

Topshiriq-2. "T-jadval" texnikasidan foydalanib "O'quv ob'ektlari"ning imkoniyati va muammolarini toifalab bering.

O'quv ob'ektining imkoniyatlari	O'quv ob'ektining muammolari

Topshiriq-3. "T-jadval" texnikasidan foydalanib "O'quv ishlab chiqarish ob'ektlari"ning imkoniyati va muammolarini toifalab bering.

O'quv ishlab chiqarish ob'ektining imkoniyatlari	O'quv ishlab chiqarish ob'ektining muammolari

Topshiriq-4. "T-jadval" texnikasidan foydalanib "Ishlab chiqarish korxonasi sexlari"ning imkoniyati va muammolarini toifalab bering.

Ishlab chiqarish korxonasi sexlarining imkoniyatlari	Ishlab chiqarish korxonasi sexlarining muammolari

10- Mavzu: Kasb pedagogikasining didaktik prinsiplari

Topshiriq-1. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. "Ta'lim tamoyillari" tushunchasiga klaster tuzing

Topshiriq-2. Didaktik tamoyillarning har birining imkoniyatlarini izohlab bering.

Topshiriq-3. Kasb ta'limi o'qituvchisi Z.Akbarov dars o'tish jarayonida ishlab chiqarishga oid plakatlar, chizma va diagrammalar, asbob-uskunalaridan unumli foydalanishga harakat qiladi. Bunda o'qituvchi qaysi didaktik tamoyilga amal qilishini ko'rishimiz mumkin?

11- Mavzu: Kasb-hunar ta'limi jarayonining ishtirokchilari va jarayonlarni loyihalashtirish

Topshiriq-1. Mutaxassisligigizga oid biror fandan dars rejasi ishlab chiqing.

Topshiriq-2. Mutaxassisligigizga oid biror fandan darsning texnologik xaritasini ishlab chiqing.

Topshiriq-3. O'quvchilarning "bilimlarni o'zlashtirish faoliyati" bosqichlarini ketma-ketlikda keltiring va har bir bosqichni izohlab bering.

12-mavzu: Kasb-hunar ta'limi mazmuni

Topshiriq-1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashda uning hayotiy siklining uchta asosiy bosqichlarini aytib bering va har birining mazmunini izohlang.

Topshiriq-2. "Yengil sanoat" KHKlarida o'qitiladigan fanlarni umumta'lim, umumkasbiy va maxsus fanlar bloklari bo'yicha tasniflang.

Topshiriq-3. Mutaxassisligingizga oid biror fandan mikrodarajadagi o'qitish mazmunining o'quv elementlarini ishlab chiqing.

13-mavzu: Kasbiy pedagogikada ta'lim metodlari

Topshiriq-1. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. "Ta'lim metodlari" tushunchasiga klaster tuzing.

Topshiriq-2. "T-jadval" texnikasi asosida og'zaki bayon qilish metodlarining afzalligi va kamchiliklarini ko'rsating va jadvalni to'ldiring.

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

Topshiriq-3. "T-jadval" texnikasi asosida ko'rgazmali metodlarining afzalligi va kamchiliklarini ko'rsating va jadvalni to'ldiring.

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

Topshiriq-4. "T-jadval" texnikasi asosida amaliy metodlarining afzalligi va kamchiliklarini ko'rsating va jadvalni to'ldiring.

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

14-mavzu: Kasb-hunar ta'limida ta'lim vositalarining o'rni

Topshiriq-1. Biror xususiyatini e'tiborga olgan holda ta'lim vositalarini klassifikatsiyalang.

Topshiriq-2. Ta'lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini keltiring. Javobingizni asoslang.

Topshiriq-3. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli

sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi. “Ta‘lim vositalari” tushunchasiga klaster tuzing.

15-mavzu: Ta‘lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish

Topshiriq-1. “Men o‘quvchini baholayman” mavzusida fikrlaringizni bayon qiling.

Topshiriq-2. Sinkveyn beshlik degan ma‘noni anglatadi. Tanlangan tushuncha 1 so‘zdan iborat ot, 2 so‘zdan iborat sifat, 3 so‘zdan iborat fel bilan ifodalanadi, tushunchaga nisbatan munosabat bildiriladi va uni bir so‘zdan iborat sinonimi topiladi.

Quyidagi tushunchalarni sinkveyn texnikasidan foydalangan holda tahlil qiling: baholash, reyting, test, nazorat, tahlil.

Topshiriq-3. Nazaringizda baholashda qaysi mezonlarga amal qilish lozim?

16-mavzu: Dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari

Topshiriq-1. Darslarni tasniflash tarixi bo‘yicha axborotnoma tayyorlang.

Topshiriq-2. «Klaster» metodi aniq ob‘ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi. “Dars tiplari” tushunchasiga klaster tuzing.

Topshiriq-3. Biror dars tipini tanlang va “T-jadval” texnikasidan foydalanib jadvalni to‘ldiring:

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

Topshiriq-4: “Mening darsim...” mavzusida insho yozing.

17-mavzu: Kasb ta‘limi o‘qituvchisining uslubiy ishlari

Topshiriq-1. Kasb ta‘limi o‘qituvchisining uslubiy ishlarining mazmuni nimadan iborat. Javoblaringizni asoslang.

Topshiriq-2. Mutaxassisligingizga oid fandan ishchi dastur tayyorlash texnikasini namoyish qilib bering.

Topshiriq-3. Mutaxassisligingizga oid fandan taqvim reja tayyorlash texnikasini namoyish qilib bering.

18-mavzu: Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xos xususiyatlari

Topshiriq-1. “Zamonaviy o‘qituvchi” modelini ishlab chiqing.

Topshiriq-2. Bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablarni tasniflab bering.


Topshiriq-3. “Men kasb ta‘limi o‘qituvchisiman” mavzusida insho yozing.

19-mavzu: Pedagogik qobiliyatlar tizimi va kommunikativ qobiliyat

Topshiriq-1. «Klaster» metodi aniq ob’ektga yo’naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog’liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o’quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o’zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi. “Pedagogik qobiliyat” tushunchasiga klaster tuzing.

Topshiriq-2. O’zingizda mavjud bo’lmagan pedagogik qobiliyatni aniqlab ko’ring. “Nima uchun?” texnikasidan foydalanib uning sabablarini aniqlang. Muammoni bartaraf etish yo’llari bo’yicha taklifingizni asoslang.

«Nima uchun?» texnikasining sxemadagi ko’rinishi



Topshiriq-3. Siz uchun namuna bo’la oladigan o’qituvchini ayting. Unda qanday pedagogik qobiliyatlar mavjudligini sanab bering.


20-mavzu: Kasb ta’limida muloqot qobiliyati

Topshiriq-1. Muloqotning pedagogik faoliyatdagi o’rnini “FSMU” texnikasidan foydalanib tushuntirib bering.

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o’rgatuvchi texnologiya

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o’tkazishda yoki o’quv-seminari yakunida (talabalarning o’quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o’quv rejasi asosida biron bo’lim o’rganib bo’lingach qo’llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya talabalarni o’z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o’z fikrini boshqalarga o’tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o’quvchi talabalarni, o’quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egaliklarini baholashga hamda talabalarni bahslashish madaniyatiga o’rgatishga xizmat qiladi.

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o’rgatuvchi texnologiyadan foydalanish jarayonining bosqichlari



Topshiriq-2. Tasavvur qiling siz KHK kasb ta'limi o'qituvchisiz. O'quvchingiz va sizning orangizda ziddiyatli vaziyat vujudga keldi. Muloqot texnikasidan foydalanib vaziyatdan qanday chiqib ketasiz, namoyish qiling. Javobingizni asoslang.

Topshiriq-3. Guruhingizdagi o'quvchingizning onasi farzandi bilan til topisha olmayotganligi haqida shikoyat qilib qoldi. O'qituvchi sifatida unga qanday yordam berasiz, namoyish qiling. Javobingizni asoslang.

21-mavzu: Kasbiy pedagogik mahorat va muloqot uslublari

Topshiriq-1. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. "Mahoratli o'qituvchi" tushunchasiga klaster tuzing.

Topshiriq-2. "Men mahoratli o'qituvchi bo'lishim uchun..." fikrini mantiqiy ketma-ketligini ishlab chiqing. Javobingizni asoslang.

Topshiriq-3. Biror pedagogik vaziyatni tanlang. Ushbu vaziyatda qanday mimika usulidan foydalanishingizni namoyish qiling.

Topshiriq-4. Biror pedagogik vaziyat tanlang. Ushbu vaziyatda qanday pantomimika usulidan foydalanishingizni namoyish qiling.

22-mavzu: Kasbiy pedagogik faoliyatning konseptual asoslari. Kasbiy ta'lim o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar

Topshiriq-1. Bugungi kunda kasb ta'limi o'qituvchilarida pedagogik faoliyatni olib borishlaridagi mavjud muammolar nimalardan iborat deb o'ylaysiz? Javobingizni asoslang.

Topshiriq-2. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi sifatida individual uslubdagi faoliyatingiz turlarini sanab bering.

Topshiriq-3. Tasavvur qiling, Siz KHK o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarisiz. Jamoadagi o'qituvchilarning uslubiy mahoratini oshirish bo'yicha qanday ishlarni yo'lga qo'ygan bo'lar edingiz?

23-mavzu: O'quv maqsadlari va uni ishlab chiqish

Topshiriq-1. Mutaxassisligingizga oid biror mavzuni tanlang. Mavzuga oid o'quv maqsadlari (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi)ni ishlab chiqing.

Topshiriq-2. O'quv maqsadlarini qo'yish uslublarini aytib bering.

Topshiriq-3. B.Blum taksonomiyasiga asoslanib o'quv maqsadlarini ishlab chiqing.

24-mavzu: Kasb ta'limi dual tizimi

Toshiriq-1: Kasb ta'limi dual tizimining o'ziga xos tomonlarini toifaga ajrating. Javoblar asosida jadvalni to'ldiring.

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

Topshiriq-2: Tasavvur qiling, Siz KHK o'quv ustasisiz. Ta'limni ishlab chiqarish bilan qanday bog'lagan holda amalga oshirgan bo'lardingiz. Javobingizni asoslang.

Topshiriq-3. Sizningcha, kasbni o'zlashtirish jarayoni bosqichlari nimalardan iborat?

25-mavzu: Kasb-hunar ta'limini boshqarish

Topshiriq-1. Tasavvur qiling, Siz KHK direktorisiz. Rahbar sifatida kunlik ish tartibingizni ishlab chiqing.

Topshiriq-2. Majlis paytida xodimingiz Sizni fikringiz noto'g'riligini aytdi va Siz uning haqligini tushundingiz. Vaziyatdan qanday chiqasiz, namoyish qiling.

Topshiriq-3. "Men rahbar bo'lsam..." fikrini davom ettiring.

26-mavzu: O'qituvchi va rahbarlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv mahoratlarini shakllantirish

Topshiriq-1. Rahbar sifatida qanday qobiliyatlar sizda yetishmaydi, aniqlashga harakat qiling. "Nima uchun?" texnikasidan foydalanib sabablarni aniqlang, yechimiga oid fikringizni bildiring.

Topshiriq-2. "Bugungi rahbar qanday bo'lishi kerak?" mavzusida insho yozing.

Topshiriq-3. "Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli qanday?" FSMU texnikasidan foydalanib fikringizni bayon eting.

27-mavzu: O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) kasblari va mutaxassisliklarini turkumlash

Topshiriq-1. Mehnat qurollari bo'yicha kasblarni tasniflab bering.

Topshiriq-2. Faoliyat turlari bo'yicha kasblarni tasniflab bering.

Topshiriq-3. Ish ob'ekti bo'yicha kasblarni tasniflab bering.

Topshiriq-4. Kichik mutaxassisning vazifalarini aytib bering.

28-mavzu: Kasb-hunar ta'limi muassasalarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti

Topshiriq-1. "Tarbiya" tushunchasiga klaster tuzing.

Topshiriq-2. Tasavvur qiling, guruh rahbarisiz. Biror muammoli vaziyat yarating va uni hal etish yo'llarini aytib bering. Javobingizni asoslang.

Topshiriq-3. "Men guruh rahbari bo'lsam..." mavzusida insho yozing.

29-mavzu: KHK o'quvchilarini milliy mafkura ruhida tarbiyalash

Topshiriq-1. "Barkamol shaxs" modelini ishlab chiqing.

Topshiriq-2. Tasavvur qiling, Siz KHK o'qituvchisiz. Pedagog sifatida o'quvchilaringizda milliy mafkurani shakllantirishning qanday usullaridan foydalanasiz?

Topshiriq-3. Dars jarayonida milliy g'oyani singdirish texnologiyasidan namuna namoyish qilib bering.

30-mavzu: Kasb-hunar ta'limida guruh rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish

Topshiriq-1. Guruh rahbarining ish rejasini ishlab chiqish texnikasini namoyish qiling.

Topshiriq-2. KHK o'qituvchisining ota-onalar, mahalla va jamoat tashkilotlari bilan olib boradigan ishlarini tasniflab chiqing.

Topshiriq-3. O'quvchingizni ota-onasi guruh rahbari sifatida Sizning ustingizdan rahbariyatga shikoyat qilib keldi. Vaziyatda o'zingizni qanday tutasiz, namoyish qilib bering.

31-mavzu: Kasb-hunar ta'limini umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va fan bilan integratsiyalash

Topshiriq-1. Mutaxassisligingizdan kelib chiqib biror mavzuni tanlang. Ushbu mavzuda fanlararo bog'lanishni qanday amalga oshirishingizni namoyish qilib bering.

Topshiriq-2. Bugungi kunda Sizning yo'nalishingiz bo'yicha qanday muammolar mavjud deb o'ylaysiz. Ularni bartaraf etish bo'yicha qanday takliflar kirita olasiz?

Topshiriq-3. Kasb ta'limi o'qituvchisi sifatida ishlab chiqarish bilan ta'limni integratsiyalashga misol keltiring. Javobingizni asoslang.

32-mavzu: Kasb-hunar ta'limida o'quvchi shaxsini shakllantirish

Topshiriq-1. Kasb ta'limi o'qituvchisi sifatida o'quvchi shaxsini qanday shakllantirasiz. "Qanday?" ierarxik diagrammasidan foydalanib, Aniq misollar bilan tushuntirib bering.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi

«Qanday?» ierarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

1. Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi.

2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.


3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi kerak.

5. Yangi g'oyalarni qanday grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz tanlab oling (daraxt, kaskad va b.). Bunda muammo shajarasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

6. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasining sxematik ko'rinishi



Topshiriq-2. Mutaxassislik fanlarini o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni nimalardan iborat? FSMU texnikasidan foydalanib bayon eting.

Topshiriq-3. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy sabablarni "T-jadval" texnikasi asosida toifalangi.

33-mavzu: Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar

Topshiriq-1. Mutaxassisligingizga oid biror mavzuni tanlang. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib uni o'qitish texnologiyasini ishlab chiqing.

Topshiriq-2. Yakka holda o'qitishning imkoniyatlarini sanab bering. Javoblar asosida ularni toifalab, jadvalni to'ldiring.

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

Topshiriq-3. Jamoa bo'lib o'qitishning imkoniyatlarini sanab bering. Javoblar asosida ularni toifalab, jadvalni to'ldiring.

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

Topshiriq-4. “Pedagogik texnologiya” tushunchasiga klaster tuzing.

34-mavzu: Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish

Topshiriq-1. “Qanday?” ierarxik diagrammasidan foydalanib, ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish masalasining yechimini topishga oid javobingizni keltiring.

Topshiriq-2. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishga yo’naltirilgan qanday pedagogik texnologiyalarni ajratib ko’rsatish mumkin? Javobingizni asoslang.

Topshiriq-3. Siz kasb ta’limi o’qituvchisi sifatida ta’limni insonparvarlashtirishni qanday amalga oshirasiz? Fikringizni bayon eting, unga asos keltiring.

35-mavzu: Muammoli ta’lim va didaktik o’yin texnologiyalarining kasb-hunar ta’limidagi ahamiyati

Topshiriq-1. Mutaxassisligingizga oid mavzu tanlang. Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish uchun muammoli vaziyatlar ishlab chiqing.

Topshiriq-2. Mutaxassisligingizga oid mavzu tanlang. Didaktik o’yin texnologiyasidan foydalanish uchun ishbilarmonlik o’yinlari ishlab chiqing.

Topshiriq-3. Muammoli ta’limning o’ziga xos jihatlarini “T-jadval” texnikasi asosida toifalang. Jadvalni to’ldiring.

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

Topshiriq-4. Didaktik o’yin texnologiyalarining o’ziga xos jihatlarini “T-jadval” texnikasi asosida toifalang. Jadvalni to’ldiring.

<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>

36-mavzu: Kasb ta’limi pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish

Topshiriq-1. “Yuqori malakali xodim” modelini ishlab chiqing.

Topshiriq-2. Keng qamrovli va yuqori malakali xodimlar tayyorlashga qo’yiladigan asosiy talablarni sanab bering.

Topshiriq-3. Kelajakda o’z malakangizni oshirish bo’yicha rejalarangizni bayon eting.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI

**“Samarali metodni tanlash”
mavzusidagi**

KEYS-STADI

TOSHKENT-2016

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

1. **Fanning nomi:** “Kasbiy pedagogika” .

Mavzuning nomi: “Kasb-hunar ta’limi muassasalarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti”, “KHK o‘quvchilarini milliy mafkura ruhida tarbiyalash”, “Kasb-hunar ta’limida o‘quvchi shaxsini tarbiyalash” mavzulariga moslangan keys.

2. Berilgan keysning maqsadi: Bo‘lajak muhandis-pedagoglarda ma’lum shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘rganishi lozim bo‘lgan mavzu uchun eng qulay va samarali metodni tanlay olish malakasini shakllantirish.

Kutilayotgan natija: mavzuning mazmunini tahlil qiladi. Guruh tavsifi bilan tanishgan holda ta’limiy maqsadlarni aniqlaydi. Tanlab olingan metodlarning imkoniyatlariga baho beradi. Yuqorida aytib o‘tilgan omillarni hisobga olgan holda eng qulay metodni tanlaydi va asoslaydi. Muammoning yechimini topadi. Keys muqaffafiyatli yechish uchun talabalar **quyidagi natijalarga** erishishlari lozim: mavzuni tavsiflash; guruh xususiyatlarini aniqlash; metodlarning imkoniyatlarini aniqlash; barcha omillarni birlashtirgan holda ularning barchasi uchun yagona to‘g‘ri bo‘lgan optimal metodni tanlash.

3. Mazkur keys institutsional tizimning sun’iy yaratilgan vaziyat asosida ishlab chiqilgan.

4. Keysda ishlatilgan ma’lumotlar manbai quyidagilardan iborat:

Darsni tashkil etish lozim bo‘lgan mavzuning mazmuni, o‘qitish lozim bo‘lgan guruh xarakteristikasi, metodlarning turlari.

5. Mazkur keys kabinet tadqiqotlari asosida tuzilgan syujetli toifaga kiradi. Keys tuzilmaviy ko‘rinishga ega bo‘lib, topshiriqlarni algoritmik ketma-ketlikda bajarishga asoslanadi. Keysning ob’ekti o‘quv guruhi hisoblanadi. Keysning hajmi o‘rtacha bo‘lib, vaziyatni har tomonlama tahlil etish asosida muammoning optimal echimini topishga qaratilgan.

6. Didaktik maqsadiga ko‘ra keys - trening xarakteriga ega. U optimal metodni tanlash bo‘yicha talabalarning malaka va ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Talabalarda tahlil etish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida keys muammosi, topshiriqlar, ularni bajarish algoritmi va zarur axborot izchillik bilan bayon etilgan.

Keysning afzalliklariga quyidagilar kiradi: O‘quv darsining keys – texnologiya o‘qitish bo‘yicha, talabalarning o‘zi tashkil etgan ish faoliyatining ta’minlovchi va uning natijaviy bahosini belgilovchi “Holatliy tahlil varaqasi” mavjud.

7. Mazkur keysdan «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat», «Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi», «Kasb ta’limi metodikasi», «Pedagogika» kurslarining didaktika qismini o‘rganish jarayonida **foydalanish mumkin.**

Kirish

• **Dolzarliligi.** O'quv jarayonini tashkil etish, samarali natijaga erishish ko'p jihatdan to'g'ri, optimal metodni tanlashga bog'liq. Eng qulay va yuqori samara beruvchi metodni tanlashda o'qituvchi bir qancha omillarni hisobga olishi, ularni tahlil qilishi va shu tahlil asosida ma'lum vaziyatga mos tushuvchi metodni tanlash malakasiga ega bo'lishi talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda har bir dars uchun mos keluvchi eng qulay metodni tanlash malakasini shakllantirish o'ta muhim masala. Chunki to'g'ri tanlangan metod o'quv jarayonini samarali bo'lishiga imkon yaratadi. O'quv jarayonini samaradorligini oshirmasdan turib malakali mutaxassislarni yetishtirish masalasini hal etish mumkin emas. Demak, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy rivojini ta'minlab beruvchi malakali mutaxassislarni yetishtirish faoliyatida qatnashuvchi har bir pedagog har bir vaziyat uchun optimal metodni tanlay olish malaka va ko'nikmasiga ega bo'lishi shart. Bo'lajak pedagoglarda yuqorida qayd etilgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida mazkur keys ishlab chiqildi. Keys yechimini topish jarayonida talaba metod tanlashda ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha omillarni o'rganishi, ularni tahlil etishi, qiyoslashi va yagona eng qulay metodni ko'rsatishi hamda uni asoslab berishi talab etiladi.

Optimal metodni tanlash jarayonida mavzuning xarakteri, o'quv guruhining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, darsning aniq maqsadlarini belgilab olishi, metodlarning imkoniyatlariga to'g'ri baho berishi va o'z fikrlarini bayon etishi lozim.

Keys muammosini yechimini topish jarayonida talabalarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantirish va **o'quv natijalarga erishish mumkin:**

- mazkur mavzu bo'yicha bilimni chuqurlashtirish;
- individual va guruhlarda muammoning yechimi tahlil va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- konstruktiv fikr yuritishga o'rganish;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- metod imkoniyatlarini aniqlash;
- ta'limiy maqsadlarni aniqlash;
- metod tanlash jarayonida barcha omillarni hisobga olgan holda yagona optimal yechimni topish malakasini shakllantirish.

1. "AXLOQIY TARBIYA" MAVZUSINING MAZMUNI YUZASIDAN MA'LUMOT

Axloq – ma'naviyatning o'zagidir. Axloq har bir shaxsning o'zgalarga nisbatan ma'naviy munosabatini anglatadi va ma'naviyatning o'zagini tashkil etuvchi – vijdon, insof, adolat, halollik, minnatdorlik kabi tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Axloqiy tarbiya – axloqiy onglilikni shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan bo'lib, axloqiy hislarni rivojlantirishni, axloqiy xulq-atvorga odatlantirishni va malaka hosil qilishni o'z ichiga oladi.


Axloqiy tarbiya jarayonida – axloqiy tushunchalar, axloqiy ong va axloqiy hissiyotlar ishtirok etadi (1-rasm).

Axloqiy tushunchalar – axloqiy munosabatni o'zida aks ettirar ekan, axloqiy ongda o'z aksini topadi va axloqiy kategoriyalar sifatida qabul qilinadi. Axloqiy tushunchalarga ezgulik, burch, haqgo'ylik, vijdon, saxiylik, minnatdorlik, mehr-oqibat, xurmat kabilar kiradi. Axloqiy tushunchalarni shunchaki yod olish emas, balki anglab o'zlashtirish, o'z hatti-harakatlariga dasturilamal sifatida qabul qilish va axloqiy e'tiqodni shakllantirish lozim.

Axloqiy ong – inson ongida axloqiy tamoyillarning aks etishi bo'lib, axloqiy qarashlar, tushunchalar, axloqiy e'tiqod, axloqiy xulq-atvor me'yorlari va qoidalari, axloqiy tasavvur kabilardan tashkil topadi.

Axloqiy hissiyotlar – axloqiy tushuncha va axloqiy me’yorlarga asoslangan holda insonda ma’lum hatti-harakat yoki holatga nisbatan vujudga keluvchi ichki kechinma sifatidagi munosabatni o’zida aks ettiradi. Axloqiy hissiyotlar mazmunan boy va murakkab tuzilishga ega bo’lib, ijtimoiy mahsul sifatidagi inson rivojining yuqori bosqichida vujudga kelgan.

1- rasm. Axloqiy tarbiya jarayoni




«Axloq ma’naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo’lsa, odob o’z navbatida axloqiy fazilatlarning yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni anglab yetish odobdan axloqqa, axloqdan ma’naviyatga qarab teranlashib boradi. Shu bilan birga axloq odobga nisbatan, ma’naviyat esa axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatlardir». Axloqiy tarbiya jarayoni inson hayotining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Bolalik, o’smirlik, yoshlik davrlarida axloqiy fazilatlar kasb etilsa, keyingi hayot bosqichlarida kasb etilgan axloqiy fazilatlar mukammallashtiriladi. Axloq insoniyat ma’naviy madaniyatining ko’rinishlaridan, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, u kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori va yurish-turishini ifodalaydigan, ularning bir-birlariga va jamiyatga bo’lgan munosabatini aks ettiradigan muayyan qoidalar yig’indisidir.

Axloq-insonlarni hamkorlikdagi hayotiy faoliyatlarini zarur ijtimoiy me’yorga soluvchi kategoriya, ongning ma’naviy tuzilmasidir. Albatta, axloqiy tarbiya tushunchasi axloq tushunchasidan ko’ra ko’p qirrali bo’lib, murakkab xarakterga ega, u tarixiy va milliy xususiyatlarni hamda axloqiylikga bo’lgan munosabatni shakllantiruvchi metodlarni o’zida mujassamlashtiradi. Axloqiy tushunchalar, qoida va me’yorlar dastlabki ibtidoiy jamoalar vujudga kelishi bilanoq asta-sekin shakllana borgan. Inson ongining evolyutsion rivoji axloqiy tarbiya jarayoniga o’z ta’sirini o’tkazadi. Yangidan-yangi axloqiy bilimlarning egallanishi, axloqiy qadriyatlarning boyishi, axloqiy qoida va me’yorlarning o’zgarishi evolyutsion jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Insoniyat ongining, xususan axloqiy ongning rivojlanib borishi axloqiy tarbiya mazmunini yanada mukammallashtirishni talab etadi. O’z navbatida, har bir davrning ta’lim tizimida talabalarning axloqiy tarbiyasiga qo’yiladigan talablar tizimi o’zgarib boradi.

Axloqiylik ma’naviyatning eng asosiy o’zagini tashkil etar ekan, axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish masalasi eng dolzarb masala sifatida maydonga chiqadi.

Bugungi kunda axloqiylikning tashqi elementlariga (xulq-odob, muomala) asosiy e’tiborni qaratib, axloqiylikning ichki elementlari bo’lmish axloqiy onglilik, axloqiy e’tiqod va axloqiy hissiyotlarni rivojlantirishga panja orqasidan qaramoqdamiz (2-rasm).



2- rasm. Axloqiy tarbiyaning elementlari

«E'tiqod shaxs, jamoa, guruh, jamiyatning muayyan g'oyalarga, baho va me'yorlarga ikkilanmasdan, shubha qilmasdan, qat'iy ishonch asosida shakllangan eng muhim va birinchi darajali sobit tushunchalari, tasavvurlari va qarashlaridir (ilm); ularni faol aqliy va hissiy qabul qilish, sevish (ishq); ularga ixlos qilish, vafodor bo'lish, o'z ideallarini, ijtimoiy intilishlari va amaliyotini moslashtirishdir (sodiqlik)». Demak, har qanday e'tiqodni asosini birinchi navbatda ilm tashkil etishini yodda tutish hamda axloqiy tarbiyani mazmunan boyitib borish masalasiga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Bugungi kunda axloqiy tarbiya mazmuni to'rt asosga qurilgan: umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari, badiiy adabiyot, san'at (axloqiy mavzudagi) durdonalari, bugungi kunning axloqiylikka bo'lgan talablari kabilar. Ammo bu to'rt asos axloqiylikning ijtimoiy jihatini ochib berishga qaratilgan va axloqiylikning tashqi elementlarini (xulq-atvor, muomala) tarbiyalashda qo'l keladi. Ularga asoslangan holda biz axloqiy tarbiya jarayonida ko'proq o'git-nasihatlardan, buyuk allomalar ibratidan yoki namuna ko'rsatish, o'rgatish, uqtirish, odatlantirish, rag'batlantirish, jazolash metodlaridan foydalanamiz. Biroq ilg'or texnologiyalar asrida yashayotgan talabalarni bu metodlarning o'zi qoniqtira olmaydi.

Fan-texnikaning rivoji bugungi kun talabalarida ilmiy tahlil qilish asosida bilimlarni egallash ehtiyojini uyg'otdi. Ularning tafakkuri, bilimlar qamrovi keng, ular ilmiy jihatdan isbotlangan bilimlarni idrok etishga o'rganib qolganlar. Bunday yaxshi fazilatni uzoq davrlar davomida biz o'zimiz yoshlarda tarbiyaladik. Bugungi kun talabalarida voqea va hodisalarni ilmiy asosda idrok etish ehtiyoji shakllangan, endilikda axloqiy tarbiya jarayonida ham ana shu ehtiyojga asoslangan holda ish olib borish maqsadga muvofiq. Yuqorida sanab o'tilgan axloqiylikning to'rt asosiy negizi va axloqiy tarbiya metodlari talabalarda axloqiy e'tiqod, axloqiy ishonch, yuksak axloqiy onglilikni tarbiyalash uchun yetarli emas.

Bu to'rt asos axloqiy qoidalarga amal qilish zaruratining tub mohiyatini ilmiy asosda ochib bera olmaydi hamda ilmiy tahlil metodini qo'llash imkonini yaratmaydi. Bunday holat bugungi kunda axloqiy tarbiya jarayonini bir oz yuzaki kechishiga, axloqiylikning tashqi elementlarini tarbiyalash bilan cheklanib qolishga olib kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston evolyutsion rivojlanish yo'lida tub sifat o'zgarishlarni boshidan kechirar ekan, har bir sohada va har bir talabada ma'naviy-axloqiy sifat o'zgarishlarni sodir bo'lishi talab etilmoqda.


Axloqiylikning biologik jihatlarini ruhiyatga oid bioenergetik bilimlardan foydalangan holda o'rganish va tahlil qilish axloqiylikning nafaqat ijtimoiy talab, balki birinchi navbatda biologik zarurat ekanini ilmiy asosda isbot etadi, axloqiy tarbiyada mavjud bo'lgan ijtimoiy yondashuvni shaxsiy motivatsiyalar bilan boyitadi, axloqiylik haqidagi bilimlarimizni

kengaytiradi hamda axloqiy tarbiya mazmunini boyitadi, axloqiylik har bir shaxsning biologik talabi ekanligini anglashga yordam beradi.

Axloqiylikning biologik jihatlarini o'rganish talabalarda axloqiylik va axloqiy tarbiya masalasiga nisbatan butunlay yangicha munosabatni uyg'otadi. Talabalar sog'lom hayot kechirish, ruhiy uyg'unlikka erishish uchun axloq qoidalariga amal qilish hamda axloqiy munosabatlarni o'rnatish zaruratini anglab yetadilar.


Axloqiylikning biologik jihatlarini ruhiyatga oid bioenergetik bilimlar asosida tahlil qilish talabalarda axloqiy tarbiya jarayonida yangi motivatsiyalarni uyg'otar ekan, axloqiy tarbiyani rivojlantirishda o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axloqiy tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun axloqiy tarbiyani mazmunan boyitish va yuqorida aytib o'tilgan to'rt asosga beshinchi asosni, ya'ni **axloqiylikning biologik jihatlarini qo'shish** lozim (3-rasm). Axloqiylikning biologik jihatlarini o'rganish shaxsiy xarakterdagi yondoshuvni vujudga keltiradi va axloqiy, axloqiy e'tiqod hamda axloqiy hissiyotlarni tarbiyalash jarayonida yangi imkoniyatlarni ochib beradi.



3- rasm. Axloqiy tarbiya mazmunining komponentlari.

O'zbekiston Respublikasidagi barcha sohalarida ro'y berayotgan tub islohotlar talabalarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasiga ham o'zining yangidan-yangi talablarini qo'ymoqda. Bugungi kunda talabalarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalash uchun bizning nazarimizda quyidagi vazifalarni bajarish lozim (4-rasm).



4-rasm. Axloqiy tarbiya jarayonida bajarish lozim bo'lgan vazifalar.

Buyuk mutafakkirlarimizning axloqiy tarbiya haqidagi g'oyalari va fikrlari hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ishda Abu Nasr Forobiyning axloqiylik tafakkurga asoslangan hosilotdir, Abu Rayhon Beruniyning axloqiy tarbiya jarayonida ruhiyatning uyg'unligiga erishish lozim, Abu Ali Ibn Sinoning inson ma'naviyati va axloqi uning salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazadi degan g'oyalari metodologik asos qilib olindi. Biz bugungi kunda oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan axloqiy tarbiya jarayonini o'rganar ekanmiz, yuqorida aytib o'tilgan g'oyalar asosidagi yondoshuvning yo'qligini aniqladik. Bunday holat axloqiy tarbiya jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Biz axloqiy tarbiya jarayonida tafakkurga asoslangan holda axloqiylikning biologik zarurat ekanligini anglashni, axloqiy tarbiya jarayonida axloqiy hissiyotlarni tarbiyalash orqali uyg'unlikka erishishni va axloqiy ongillikni fikrlash axloqidan boshlash lozim ekanligini ilmiy jihatdan asosladik.

Axloqiy ongillik axloqiy tarbiyaning o'zagini hosil etadi, uning asosi esa fikrlash axloqidan tashkil topadi. Ammo hozirda pedagoglar fikrlash qobiliyatini tarbiyalashga faqat didaktik nuqtai nazardan yondoshib, bilish jarayoni sifatidagina fikrlash qobiliyatini talqin etmoqdalar va rivojlantirishga harakat qilmoqdalar. Natijada, fikrlash jarayoniga nisbatan munosabat tarbiyalanmayapti.

Hissiyotlar axloqi bugungi kunda talabadan o'z hissiyotlarini nazorat qila olishni, ijobiy hissiyotlarni rivojlantirish, salbiy hissiyotlar bilan kurashishni, hissiy me'yorlarga amal qilishga o'rganishni talab etmoqda. Psixologik testlarning natijalari talabalarining 83 foizi axloq me'yorlari va qoidalariga yetarli darajada amal qilishlarini ko'rsatdi, ammo 45 foiz talabada shafqatsizlik xususiyati rivojlanganligi ham aniqlandi. Faqat 3 foiz talabada yetarli darajada hamdardlik hissi rivojlangan. Talabalarining diqqati asosan xulq-odob, axloqiy hatti-harakatlarda to'plangan bo'lib, ular axloqiy hissiyotlarning rivojlanishiga e'tibor bermaydilar.

Axloqiy tarbiyani amalga oshirish muammolarini hal qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar vijdoni oldida hisobot berish, ichki nazorat darajasini o'rganish borasida quyidagi ma'lumotlarni olishga yordam berdi: 45 foiz talabaning diqqati tashqi dunyoga yo'naltirilgan. 15 foiz talabaning diqqat-e'tibori yetarli darajada ichki dunyosiga yo'naltirilgan emas. 40 foiz talabaning diqqat-e'tibori yetarli darajada o'z ichki dunyosiga yo'naltirilgan.

2. O'QUV GURUHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ikkinchi kurs talabalarining soni 21ta, ulardan 17tasi qiz bolalar. Guruh a'zolarining 65% a'lo va yaxshi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega. Guruh jamoa sifatida shakllanib bo'lgan va bir-birini juda yaxshi tushunadi. Guruh talabalari inoq va hamkorlikda ishlashni yaxshi ko'radi. Guruhga faollik, qiziquvchanlik, ijodkorlik xususiyatlari xos.

3. O'QUV XONASINI TEXNIK VOSITALAR BILAN JIHOZLANGANLIK DARAJASI

O'quv xonasi hamkorlikda kichik guruhlarda faoliyatni tashkil etish uchun qulay holatda jihozlangan. O'quv xonasida kompyuter va proektor kabi texnik vositalar mavjud.

4. TALABALARGA BERILADIGAN MULOHAZA UCHUN SAVOLLAR

1. Ma'lum mavzuni o'rganish uchun metodni tanlash jarayonida qanday omillarni hisobga olish lozim?
2. Siz qanday metodlarni bilasiz?
3. Namoyish metodiga izoh bering.
4. Muammoli metodning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlang.
5. Axborot darsining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlang.
6. Dars maqsadlari qanday belgilanadi?
7. Berilgan mavzuga aniq maqsadlarni belgilang.

5. Talabalar uchun uslubiy qo'llanmalar

Keys muammosi

“Axloqiy tarbiya” mavzusi yuzasidan o'tkaziladigan ma'ruza darsini qaysi metoddan foydalangan holda o'qitish samarali natijaga erishish imkonini beradi.

Keys vaziyati : Siz KHKga o'qituvchi sifatida ishga qabul qilindingiz. Siz yosh pedagogsiz va pedagogik tajribangiz katta emas. Kollejda ish boshlaganigizga olti oy bo'ldi. Kollej ma'muriyati sizga katta hurmat bilan qaramoqda va an'anaviy o'quv jarayoniga yangi o'zgarishlar kiritishingizni kutmoqda. Siz pedagogika fanidan dars berasiz. Pedagogika kursida reja bo'yicha mavzular o'z vaqtida o'rganilib kelmoqda. Siz ertaga “Axloqiy tarbiya” mavzusi yuzasidan ma'ruza darsini tashkil etishingiz kerak. Ma'ruza darsi ochiq dars sifatida rejalashtirilganligi sababli bir qancha katta o'qituvchilar darsingizni kuzatish uchun kirishlarini bildirdilar. Dars uchinchi bosqich talabalari uchun tashkil etiladi. O'qituvchilarning guruhga bergan xarakteristikasi mavjud. O'quv xonasining jihozlanganlik darajasi ham ma'lum.


Sizdan “Axloqiy tarbiya” mavzusi yuzasidan ma'ruza darsida samarali natijaga erishish uchun qanday metodni qo'llash lozim degan savolga? - javob topish va uni asoslab berish talab etiladi.

VAZIFALAR

- Mavzuning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish.
- Matndagi ilmiy axborotning siqqligi va murakkablik darajasiga baho berish.
- Darsning umumiy maqsadini aniqlang.
- Darsning aniq maqsadlarini ishlab chiqing.
- Talabalar guruhini xususiyatlarini aniqlang.
- Talabalar guruhini strukturasi qanday?
- Metodlarni tahlil qiling.
- Metodlarning imkoniyatlarini aniqlang.

YECHISH ALGORITMI:

1. Mavzu mazmunini tahlil qilish va murakkablik darajasini aniqlash.
2. Talabalar guruhini xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish, o'quv xonasini jihozlanish darajasi va shart-sharoitlari bilan tanishish.
3. Mavzuni o'rganishdan maqsadni, pedagog vazifalari va o'quv natijalarini aniqlash.
4. Metodlarning tahlili, imkoniyatlarini o'rganish, berilgan jadvallarni to'ldirish va mavjud vaziyatga mos imkoniyatga ega bo'lgan metodni aniqlash.
5. “AVI” texnologiyasi asosida optimal metodni tanlash va asoslab berish.



Vaziyatni yechimini tahlil etish jadvali.

“AVI”- alterantiv variantlar va imkoniyatlar.

№	Alternativlar	Variantlar	Imkoniyatlar
1	Informatsion ma’ruza	A) Hikoya B) Tushuntirish	
2	Muammoli ta’lim	A) Bahs-munozara B) Muammoli vaziyatlar	
3	Namoyish	A) Illyustratsiya B) Videosul	

Xulosa:

T/r	Baholash mezonlari				Jami ballar
	1-mezon	2-mezon	3-mezon	4-mezon	
	Metodlarni imkoniyatlarini to‘liq aniqlanishi	Mavzuga berilgan xarakteristika	Dars maqsadlarini to‘g‘ri belgilanganligi (qamrovi)	Keltirilgan omillar bo‘yicha “AVI” jadvalini har bir metodni izohlash, asoslash asosida to‘ldirilishi	

1
2
3

Talabalarga har bir mezon bo'yicha 25 ball to'plash imkoni beriladi.
Ya'ni maksimal to'planadigan umumiy ball 100 ga teng.

6. O'quv - uslubiy materiallar

1. Talaba uchun tavsiyalar

1. Biror metodni tanlash uchun avvalambor mavzuning xarakterini o'rganing, uning muammoli elementlarini ajratib va uni murakkablik darajasini aniqlang. Mavzuning asosiy o'zak qismini ajratib oling va tizimlashtiring. Mavzu bo'yicha talabalarda mavjud tasavvurlar hajmi haqida fikr yuriting. Mavzuning o'rganilganlik darajasiga va dolzarbligiga e'tibor qaratib.
2. Guruh haqidagi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida talabalarining bilim darajasiga alohida e'tibor berib, qiziqishlarini aniqlang, guruh xarakteristikasi bilan chuqur tanishib chiqing. Jamoada psixologik muhit va munosabatlarni o'rganing.
3. O'tiladigan darsning tarbiyaviy va ta'limiy maqsadlarini, pedagog vazifalarini, o'quv natijalarini aniqlang. Bu borada mavzuning o'zak qismlarini va talaba nimani bilishi, nimani bajara olishi talab etilishiga e'tibor qaratib.
4. Metodlarning xarakteristikasi bilan tanishib va ularning imkoniyatlarini aniqlang hamda mavzuning xarakteriga mos keluvchi metodga alohida e'tibor qaratib.
5. Auditoriyaning texnik uskunalar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganing.
6. Barcha omillarni tahlil etgan holda AVI texnikasidan foydalangan holda muammoning yechimini taqdim eting.

2. Ta'lim berish usullarini tanlash

Ta'lim berish usullarini tanlash va qo'llashda quyidagi didaktik omillarni e'tiborga olish muhimdir:

1. *Maqsadlashtirish*: (1) ta'lim maqsadi, (2) pedagogik vazifalar, (3) o'quv faoliyati natijalari.

2. *O'quv axborotlar mazmunining hajmi va ularning murakkabligi*: bu predmetning qanchalik murakkabligi, o'quv predmetning maqsadi, o'ziga xos xususiyati.

3. *O'quv axborotlarni egallashda ta'lim usullarining imkoniyatlari*. G.Mayer bo'yicha, ta'lim oluvchi ma'lumotni qabul qilgandan keyingi 72 soat (3 sutka) o'tgandan so'ng tinglovchi xotirasida audioqabul qilish (eshitish) bo'yicha taxminan 10 foiz axborot qoladi; vizual (ko'rganida) – 20 foiz; audiovizual (eshitish va ko'rish) – 50 foiz; audiovizual qabul qilish va muhokamada - 70 foiz; audiovizual qabul qilish, tahlil va imkoniyat darajasida amaliy qo'shimchalarning (ilovada) bor bo'lishida – 90 foiz axborot qoladi.

4. Ta'lim oluvchilarning *o'quv imkoniyatlari*: tayyorgarlik darajasi, umumo'quv ko'nikmalarining shakllanishi, faollik, qiziqish (motivatsiyalangan), yoshi, ishga layoqatligi, shaxsiy imkoniyat va qobiliyatlari.


5. *Sarflangan vaqt*: (1) butun o'quv kursida o'quv dasturlarni olib borish uchun ajratilgan vaqt, ularning alohida mavzulari shu qadar chegaralangan bo'lishi mumkinki, ko'p vaqt oladigan usuldan foydalanish faqatgina zaruriy joylardagina ishlatish maqsadga muvofiqdir. (2) vaqt, tayyorgarlikka va uni joriy qilish uchun sarflangan kuch nuqtai nazarga ko'ra asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, bunday usullardan foydalanishni rejalashtirishda o'zimizdan so'rashimiz kerak, faoliyatni tashkillashtirishning quyidagi yo'llarini amalga oshirishda zaruriy tayyorgarlik uchun vaqt va kuch etadimi?

6. *Ta'lim sharoitlari*: ayrim usullarni amalga oshirish uchun o'ziga xos alohida sharoitlar talab qilinadi: TTV, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doska, maxsus jihozlangan xona va boshqalar. Agar maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qilingan usullardan foydalanish rejalashtirilgan bo'linsa, unda ularning mavjudligini ta'minlab berish zarur.

7. *Jamoada, ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchilar o'zaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari* (hamkorlik, bo'ysinishga asoslangan).

8. *Ta'lim oluvchilar soni*: agar ular unchalik ko'p bo'lmasalar, unda ta'limning faol usullaridan foydalangan holda ta'limni intensiv qilish mumkin.

9. Ta'lim beruvchining kompetentligi (bilimdonligi, puxta bilimga egaligi) va uning shaxsiy sifatlari: afzal ko'rgan usullardan foydalanishni va ularni qo'llay olishni bilishlari, mos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak bo'ladi.



3. O'quv natijalarini aniqlash

O'quv natijalarini aniqlash jarayonida mavzuning o'zagiga e'tibor qarating, ta'rif va asosiy tushunchalarni tahlil etish, talabalarda zaruriy bilim, malaka va ko'nikmani shakllantirishni maqsad qilib olish lozim.

7. KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

Metodlarga xarakteristika berish namunasi

1. Axborot darsi

№	Informatsion ma'ruzaning imkoniyatlari, yutuqlari	Informatsion ma'ruzaning kamchiliklari
1	Qisqa vaqt ichida katta axborotni talabalarga yetkazish mumkin	Talabalar passiv holatda mavzuni o'zlashtiradi.
2	Pedagogning tizimli va izchil faoliyatini ta'minlaydi.	Qisman tanish mavzularni o'rganish juda zerikarli bo'ladi.
3	Ko'p sonli talabalar bilan bir vaqtda ishlash imkonini beradi.	Samaradorlik darajasi past.
4	Iqtisodiy jihatdan kam mablag' talab etadi.	Pedagog va talaba orasida muloqot sust.
5		Talabalarda ijodiy fikrni rivojlantirmaydi.
6		Ijodkorlikni xush ko'ruvchi talabalarni zeriktiradi.

2. Muammoli ta'lim usuli

№	Muammoli ta'lim imkoniyatlari, yutuqlari	Muammoli ta'lim kamchiliklari
1	Muammoli ta'lim talabaning faol ishtirokini ta'minlaydi.	Talabalar sonining cheklangan bo'lishini va ularda maxsus tayyorgarlik bo'lishini talab etadi.
2	Talabada fikrlash jarayonlarini, ijodiy fikrni rivojlantiradi.	Faqat qisman ma'lum bo'lgan muammoli mavzularda qo'llash mumkin.
3	Mavzuni puxta egallashga zamin yaratadi.	Ko'p vaqt talab etadi.

- | | | |
|---|--|--|
| 4 | Qisman tanish bo‘lgan mavzularni o‘rganishda qulay. | Barcha talabalarni muhokamaga tortish qiyin. |
| 5 | Talabalarda qiziqish uyg‘otadi, o‘z fikrini bayon etish va boshqalarni tinglash malakasini shakllantiradi. | Pedagogdan katta tayyorgarlikni talab etadi. |
| 6 | Ijodkorlikni xush ko‘ruvchi talabalarga bu metod asosida darsni tashkil etish yaxshi samara beradi | |

3. Namoyish usuli

№	Namoyish imkoniyatlari, yutuqlari	Namoyish kamchiliklari
1	Ko‘rgazamali materiallardan foydalanish obrazli tafakkurni ishga tushiradi va yaxshi o‘zlashtirishga asos bo‘ladi.	Talaba passiv holatni egallaydi.
2	Mavzuni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.	Namoyish etish uchun alohida qulay auditoriyalar talab etiladi.
3	Pedagog uchun qulayliklar tug‘iladi.	Muloqotni susaytiradi.

“AVI”- alterantiva, variantlar va imkoniyatlar.

№	Alternativalar	Variantlar	Imkoniyatlar
1	Informatsion ma’ruza	A) Hikoya B) Tushuntirish	1. Mavzuning xarakteri tarixiy voqelikka ega emas. 2. Darsdan maqsad - tushuncha hosil qilishga qaratilmagan, guruh sustkash xarakterga ega emas. 3. Berilgan vaziyatda hikoya metodining imkoniyatlari yetarli darajada samarali natijani kafolatlay olmaydi. Hikoya metodini qo‘llash maqsadga muvofiq emas. 1. Mavzu talabalar uchun butunlay yangi va murakkab emas. 2. Talabalar guruhining xarakteristikasida ijodiy qobiliyatning rivojlanganligi qayd etilgan. Tushuntirish metodi esa talabalarni sustkash holda mavzuni o‘zlashtirishga da’vat etadi. 3. Dars maqsadi – tushuncha hosil qilishga qaratilmagan.
2	Muammoli ta’lim	A) Bahs-munozara	1. Mavzu talabalar uchun yangi emas va axloqiylik haqida har bir talabaning o‘z dunyoqarashi shakllangan. 2. Guruh a’zolari ijodkor xarakterga ega ekanligini hisobga olsak, bahs-munozara metodidan foydalanish dars jarayonida talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi. 3. Darsning maqsadi axloqiy tarbiya jarayoni, bugungi kunda bu borada vujudga

			kelayotgan muammolar va ularning yechimlari haqida bilimga ega bo'lish va o'z ustida mustaqil ish olib borish malakasini shakllantirishdir. Bahs-munozara metodi bilimlarni kengaytiradi va mustahkamlaydi, ammo o'z ustida ishlash malaka va ko'nikmalarni shakllantira olmaydi.
		B) Muammoli vaziyatlar	1. Mavzu talabalarga tanish va ular axloqiylikga oid muammoli vaziyatlarni yechishga juda qiziqadilar. 2. Guruh xarakteri muammoli vaziyatlarni yechimini topishga mos. 3. Muammoli vaziyatlarni yechimi axloqiy tarbiyaga oid malakani shakllanishiga va o'z-o'zini tarbiyalashga yordam beradi. Demak, o'quv natijalariga mos tushadi. Muammoli ta'lim ijodkor talabalar uchun mo'ljallangan hamda bilimlarni chuqur egallashga imkon yaratadi.
3	Namoyish	A) Illyustratsiya	1. Mavzu xarakteriga ko'ra illyustratsiya materialiga ega, ammo bu metodni asosiy metod sifatida tanlash maqsadga muvofiq emas, chunki illyustrativ material kichik hajmda. 2. Guruhga ijodiy yondoshuv imkonini bermaydi. 3. Darsning o'quv natijalariga to'g'ri kelmaydi.
		B) Video-usul	1. O'quv xonasi texnik vositalar bilan jihozlangan bo'lishiga qaramasdan bu usul talabalarining passiv faoliyatini taqozo etadi. 2. Passiv faoliyat esa ijodkor talabalarda qiziqish uyg'otmaydi. 3. O'quv natijalari esa o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bugungi kunda vujudga kelayotgan muammolarni o'rganishni va ularning yechimini topishni talab etadi. Shuning uchun bu metodni ham asosiy metod sifatida qo'llash maqsadga muvofiq emas.

Xulosa: «Axloqiy tarbiya» mavzusiga bag'ishlangan darsni muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish lozim. Mazkur vaziyat uchun muammoli vaziyatlar metodi asosiy metod sifatida qabul qilinishi lozim va u eng optimal metod bo'lib hisoblanadi. Bu metod o'rganilgan barcha omillar uchun mos keladi.

«Samarali metodni tanlash» mavzusidagi

keys – ta'lim texnologiyasining modeli

Talabalar soni 25 ta

Malakani shakllantirishga qaratilgan seminar

*Vaqt: 2 soat
Dars shakli
Seminar rejasi*

1. Keys bilan tanishuv.
2. Mavzuning mazmunining tahlili.
3. Guruh tavsifi bilan tanishish.
4. Metodlarning imkoniyatlariga baho berish.
5. Aniq maqsadlarini belgilash.

6. Muammoning yechimini topish va uni asoslash.

Ta'limiy maqsad: Bo'lajak pedagoglarda ma'lum shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish, o'rganish lozim bo'lgan mavzu uchun eng qulay va samarali metodni tanlay olish malakasini shakllantirish.

Pedagog vazifalari:

- Mavzuning xarakterini aniqlash ishini tashkil etadi

- Guruhning o'ziga xos jihatlarini o'rganishni tashkil etadi

- Metodlarning imkoniyat-larini aniqlash faoliyatini tashkil etadi

- Darsning ta'limiy maqsadlarini aniqlash faoliyatini tashkil etadi

- Optimal metodni tanlash imkonini yaratadi

Ta'lim metodi

Ta'lim vositalari

Ta'lim shakli

Shart -sharoitlar

Monitoring

O'quv natijalari

- Mavzuning mazmunini tahlil qiladi va uning murakkablik darajasini aniqlaydi.

- Guruh tavsifi bilan tanishgan holda ta'limiy maqsadlarni aniqlaydi.

- Tanlab olingan metodlarning imkoniyatlariga baho beradi.

- Darsning ta'limiy maqsadlarini ishlab chiqadi.

- Berilgan barcha omillarni hisobga olgan holda tanlangan mavzu uchun eng mos tushuvchi metodni belgilaydi.

Keys-stadi metodi

O'UM, doska, keys, axborot materiallari

Frontal va individual

Qulay sinf xonasi

Og'zaki javob, mustaqil tahlil va vaziyat yechimini topish

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat mazmuni

Faoliyat bosqichlari

1-bosqich kirish (10 daqiqa)

2- bosqich Asosiy qism (60 daqiqa)

Pedagog faoliyati

Mavzuni e'lon qiladi, maqsad va vazifalarni yoritadi va o'quv natijalari bilan tanishtiradi (1– ilova).

Ishlash lozim bo'lgan keysning pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini yoritadi (2– ilova).

Seminarni tashkil etuvchi bosqichlar ketma-ketligi bilan talabalarni tanishtiradi.

Talabalarga keys materialini tarqatadi.

2.1. Talabalar diqqatini muammoga, uni yechish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarga va harakatlar ketma-ketligiga jalb etadi.

2.2. Avval individual holda keys bilan tanishishni tashkil etadi, so'ngra talabalarni kichik guruhlarga ajratadi va har bir guruh uchun spiker tayinlaydi.

Talabalarga har bir tanlangan metodning imkoniyatlarini jadval asosida tahlil qilish vazifasini yuklaydi (3-ilova).

Guruh ichida muammoni tahlil etishni tashkil etadi.

Tahliliy varaqni to'ldirishni taklif etadi "AVI" texnologiyasi asosida (4- ilova)

2.3. Taqdimotning boshlanishini e'lon qiladi.

Talaba faoliyati

Eshitadilar va ilova bilan tanishadilar.

Tanishadilar

Eshitadilar va tushunmaganlarini aniqlaydilar.

Individual holda matn bilan tanishgach, kichik guruhlarda ishlaydilar.

Muammoni yechimini topadilar va yechim variantlarini tahlil qiladilar.

(Taxliliy varaqada ko'rsatadilar)

2.3.Taqdimot qiladilar.

		Savollarga javob beradilar va boshqa guruhlarining muammoning yechimi bo'yicha bergan javoblarini tahlil qiladilar.
	2.4. Muammoning yechimini taqdimotiga tayyorlashning talablarini va baholash mezonlarini e'lon qiladi (5 – ilova).	2.4.Taqdimotga baho beradilar.
	2.5. Taqdimotdan so'ng savollar asosida bahs-munozarani tashkil etadi. (6 – ilova)	
3-bosqich Yakunlash, tahlil va baholash (15 daqiqa)	3.1. Taqdimot davrida ilgari surilgan yechimlarni tahlil qiladi va umumlashtiradi. 3.2. Guruhlarning ishini va har bir talabaning faoliyatini alohida baholaydi. 3.3. Keysni yechish jarayonida qanday qiyinchiliklarga uchraganliklarini va bundan buyon qaysi yo'nalishda talabalar o'z ustida ishlashlari va kasbiy tayyorgarlik ko'rishlari yuzasidan maslahatlar beradi.	Eshitadilar va o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar.

1- ilova.

O'quv maqsadlari va natijalari

O'quv maqsadlari: Bo'lajak pedagoglarda ma'lum shart-sharoitlarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish, o'rganish lozim bo'lgan mavzu uchun eng qulay va samarali metodni tanlay olish malakasini shakllantirish.

O'quv natijalari: Mavzuning mazmunini tahlil qiladi. Guruh tavsifi bilan tanishgan holda ta'limiy maqsadlarni aniqlaydi. Tanlab olingan metodlarning imkoniyatlariga baho beradi. Yuqorida aytib o'tilgan omillarni hisobga olgan holda eng qulay metodni tanlaydi va asoslaydi.

2-ilova

Mazkur keysning ahamiyati

O'quv jarayonini tashkil etish, samarali natijaga erishish ko'p jihatdan to'g'ri, optimal metodni tanlashga bog'liq. Eng qulay va yuqori samara beruvchi metodni tanlashda o'qituvchi bir qancha omillarni hisobga olishi, ularni tahlil qilishi va shu tahlil asosida ma'lum vaziyatga mos tushuvchi metodni tanlash malakasiga ega bo'lishi talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda har bir dars uchun mos keluvchi eng qulay metodni tanlash malakasini shakllantirish o'ta muhim masala. Chunki to'g'ri tanlangan metod o'quv jarayonini samarali bo'lishiga olib keladi.

3-ilova

Metodlarga xarakteristika berish jadvali

1. Axborot darsi		
№	Informatsion ma'ruzaning imkoniyatlari, yutuqlari	Informatsion ma'ruzaning kamchiliklari
1		
2		
n		

2. Muammoli ta'lim usuli

№

Muammoli ta'lim
imkoniyatlari, yutuqlari

Muammoli ta'lim
kamchiliklari

1

2

n

3. Namoyish usuli

№

Namoyish
imkoniyatlari, yutuqlari


Namoyish
kamchiliklari

1

2

n

METODLAR KLASSIFIKATSIYASI



Vaziyatni yechimini tahlil etish jadvali.

“AVI”- alterantiva variantlar va imkoniyatlar.

№	Alternativalar	Variantlar	Imkoniyatlar
1	Informatsion ma’ruza	A) Hikoya B) Tushuntirish	
2	Muammoli ta’lim	A) Bahs-munozara	
3	Namoyish	B) Muammoli vaziyatlar A) Illyustratsiya B) Videousul	

Xulosa:

Ushbu texnologiya kichik modulli universal texnologiyalar qatoriga kiradi. U talabalardan vujudga kelgan vaziyatni chuqur o’rganishni, tahlil qilishni, qiyoslash, mazkur vaziyat imkoniyatlariga mos keluvchi variantni tanlash hamda ana shu tanlangan variantni asoslash kabi faoliyat turlarini talab etadi. Alternativa va variantlar qanchalik mukammal bo’lmasin mavjud vaziyat uchun mos kelmasa, faoliyat samarasiz bo’lib qolaveradi.

5- ilova

T/r	Baholash mezonlari				Jami ballar
	1-mezon	2-mezon	3-mezon	4-mezon	
	Metodlarni imkoniyatlarini to’liq aniqlanishi	Mavzuga berilgan xarakteristika	Dars maqsadlarini to’g’ri belgilanganligi (qamrovi)	Keltirilgan omillar bo’yicha “AVI” jadvalini har bir metodni izohlash, asoslash asosida to’ldirilishi	
1					
2					
3					
n					

Talabalarga har bir mezon bo’yicha 25 ball to’plash imkoni beriladi.

Ya’ni maksimal to’planadigan umumiy ball 100 ga teng.

6-ilova

Savollar:

1. Mavzuning xarakteriga qaysi metod to’g’ri keladi?
2. O’quv darsining maqsadlarini belgilashda nimalarga ahamiyat berdingiz?
3. Talabalar guruhining xarakteriga qaysi metod mos keladi?
4. Barcha omillarni hisobga olgan holda siz qaysi metod asosida darsni tashkil etgan bo’lar edingiz?

“Kasbiy pedagogika” fanidan
LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

O‘quv loyihasi:
“Axloqiy tarbiya samaradorligini
oshirish”

TOSHKENT- 2016 yil

PEDAGOGIK ANNOTATSIYA

Fanning nomi: “Kasbiy pedagogika”.

Mavzuning nomi: “Kasb-hunar ta’limi muassasalarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti”

Ishtirokchilar: bakalavriat bosqichi “Kasb ta’limi” yo‘nalishi, 2-kurs talabarlari.

O‘quv loyihasining maqsadi: Tarbiya haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish, mavjud muammolarni o‘rganish, muammolarni keltirib chiqarayotgan sabablarni aniqlash va ularni barataraf etish yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish.

Rejalashtirilayotgan o‘quv natijalari: Tarbiya nazariyasini rivojlanish tarixini o‘rganadi, bugungi kunda tarbiya jarayonini tashkil etish amaliyoti bilan tanishadi, tarbiya jarayonida vujudga kelayotgan muammolarni aniqlaydi, mavjud muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Loyihalashtirish faoliyati bo‘yicha quyidagi amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi: muammoni shakllantirish va vazifalarni aniqlash; vazifalarni amalga oshirishdagi usullarni tanlash va ulardan foydalanish; o‘z faoliyatini rejalashtirish; ma’lumot manbalarini aniqlash, tizimga keltirish va tahlil etish; natijalarni talab darajasida rasmiylashtirish va kerakli ko‘rinishda taqdim etish.

Talabalar loyihani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun bilishlari lozim bo‘lgan tayanch bilim va ko‘nikmalar quyidagilardan iborat:

Quyidagi tayanch bilimlarni bilishi kerak: ta’lim-tarbiya sohasidagi me’yoriy hujjatlar; tarbiya nazariyasining asoslari, uning rivojlanish tarixi; tarbiya jarayonini samaradorligini tahlil etish va baholash.

Quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak: tarbiyaga oid ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil etish, mavjud holatni baholash, taqdimot tayyorlash, guruhda faoliyat yuritish, hamkorlikda o‘qish tartib va qoidalari.

Turlanish belgilari bo‘yicha loyihaga tavsif: turi ilmiy-tadqiqot; **predmet va mazmun jihatdan ko‘lami** bir fan bo‘yicha foydalaniluvchi monoloyiha; **talabalar o‘quv loyiha faoliyatlarini muvofiqlashtirish xarakteri** bevosita; **ishtirokchilar soni** guruh talabarlari 5 ta ishchi guruhga bo‘linib, har bir ishchi guruhda 5 tadan ishtirokchi bo‘lishi mumkin (talabalar ko‘proq bo‘lsa, loyiha yo‘nalishlarini ko‘paytirish mumkin); **bajarish muddati** uzoq muddatli – ikki oy.

Loyihani bajarish tartibi: talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil faoliyatlarida bajariladi, amaliy mashg‘ulotda taqdim etiladi.

Loyihaning baholanishi – ishchi guruhlar tomonidan bajarilgan loyiha quyidagicha baholanadi (guruhning har bir a’zosi uchun): talabalar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida qismlari (maks. ball – 5); hisobot (maks. ball – 5); loyiha taqdimoti va himoya etish jarayoni (maks. ball – 10).

Loyiha asosida o‘qitish bosqichlari.

Tayyorlov bosqichi: loyiha bilan tanishish; auditoriyadagi mashg‘ulot vaqtida talabalar faoliyatini tashkil etish.

Loyihani bajarish bosqichlari: auditoriyadan tashqari faoliyat davrida.

Yakuniy bosqich: loyiha taqdimoti, loyiha va auditoriya mashg‘ulotida talabalarning loyihalashtirish faoliyatini baholash.

Loyiha asosida o‘qitishni boshqarish: auditoriyadan tashqari faoliyatda.

O‘qitish modeliga qisqacha tavsifnoma.

Loyiha asosida o‘qitish jarayonida quyidagilar qo‘llaniladi:

o‘qitish usullari: loyihalashtirish usuli, matn va axborot manbalari bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil etish va muammo yechimlarini aniqlash, taqdimot;

o‘qitish shakllari: ommaviy, alohida, guruhiy;

o‘qitish vositalari: loyiha topshirig‘i, uslubiy ko‘rsatmalar, kompyuter texnologiyalari.

I. O'QUV LOYIHASI

“TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH”

Kirish

Tarbiya ma'naviyatning asosi, ma'naviyat esa har qanday davlatning negizidir. Ana shu negizning bo'sh bo'lishi davlatni inqirozga olib kelishi mumkin. Demak, yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q. Bu fikr O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch» nomli asarida chuqur tahlil etilgan: «Mening nazarimda, «ma'naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi»¹ – deb yozadi. Ma'naviy yuksalish, axloqiy barkamollik birinchi galda insonning ruhiy poklanishi, axloqiy ong va axloqiy hissiyotlarga ega bo'lishi, halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb bilishidir.

Tarbiya orqali kishiga insoniy xislatlar singdiriladi, ana shu xislatlar uning ijtimoiy faolligini oshirib, jamiyatning taraqqiyotini tezlashtiradi.

Bu holatni Yurtboshimiz I.A.Karimov quyidagicha asoslab bergan: «Biron – bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».²

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta'lim-tarbiya sohasidagi tub yangilanishlarni va islohotlarni asosiy yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi bunday yangilanishlar bugungi kun talablarini o'zida aks ettiradi. Ta'lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda onglik darajasi ta'lim-tarbiya rivojini belgilaydigan muhim omildir. Binobarin ta'lim–tarbiya tizimini yangilamasdan turib jamiyatning taraqqiyotini ta'minlab bo'lmaydi.

Komil insonni shakllantirish masalasi ham ushbu davlat hujjatlarida markaziy o'rinni egallaydi. Bu masalani hal etish, ta'lim jarayonining tarbiyaviy tomonlariga, ayniqsa, ma'naviy-axloqiy tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni talab etmoqda. Yuksak axloqiy onglik, imon va e'tiqodga ega bo'lgan insonlarga islohotlarning jamiyatni rivojlanishini ta'minlay oladi. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va yanada rivojlantirish uchun yoshlarda kelajakka ishonch, halollik, fidoyilik, birdamlik, sadoqat, vijdoniylik, haqgo'ylik, burch, mas'uliyat kabi axloqiy xislatlarni tarkib toptirish hamda takomillashtirish lozim.

Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash insondan ma'lum axloqiy fazilatlarni talab etadi. Bu birinchi navbatda halollikdir. Moddiy boyliklarni taqsimoti, daromadni taqsimoti insondan birinchi galda halollikni talab etadi. Intizomli, burch va vazifalarini to'g'ri tushungan, o'z mehnatiga vijdonan yondoshuvchi inson kishilar ishonchini qozona oladi, ishlab chiqarishning turli sohalarida taraqqiyotga erishadi.

Halol, qalbi pok, vijdonli odamlar davlatning olib borayotgan faoliyatini ongli ravishda qabul qiladi va jamiyatning rivoji yo'lida fidoyilik bilan mehnat qiladilar hamda vaqtincha kelib chiqayotgan qiyinchiliklardan qo'rqmaydilar. Bu borada ularga e'tiqod, ishonch, ezgu niyat yordam beradi. Yuqorida qayd etilgan axloqiy fazilatlarni yoshlarda tarbiyalash va rivojlantirish tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Demak, jamiyat rivojidek muhim masala ham jamiyatning axloqiylik darajasiga bog'liq ekan. Axloqiylik darajasining yuksalib borishi jamiyatning turli sohalarida (ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy) katta yutuqlarga erisha olishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ma'naviyatning o'zagini tashkil etuvchi tarbiya jarayonini o'rganish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo tarbiya jarayonini tahlil etish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiflar ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqot ishi tayyorlash.

Loyiha vazifalari:

¹ **Karimov I.A.** Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T.: «Ma'naviyat», 2008.– 176 bet.

² **Karimov I.A.** O'zbekiston XXI asr bo'sa'sida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997. – 137 bet.

1. Tarbiya jarayoniga oid ma'lumotlarni to'playdi.
2. Talabalarning axloqiylikka undovchi motivlarini o'rganadi.
3. Tarbiya jarayonida vujudga kelayotgan muammolar tizimini shakllantiradi.
4. Tarbiya jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqadi.
5. Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish yuzasidan tavsiyalar bayon etilgan uslubiy qo'llanma ishlab chiqish.

Loyiha topshirig'i

Loyihaning maqsadi (nima uchun yaratilayapti) tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish va tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar tizimini ishlab chiqish.

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija (loyiha mahsuli) tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot ishi bo'yicha hisobot tayyorlash.

Loyihadan foydalanuvchilar: professor-o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, talabalar.

Loyiha doirasi:

- bajarilish muddati: 3 oy;
- ishtirokchilar soni: 1 kishidan 5 kishigacha.

Loyihaning mazmuni:

I. Tadqiqot loyihasining kirish qismi.

- Tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslash, uning muammosi, predmeti va ob'ektini aniqlash.
- Tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilash.
- Tadqiqotning axborot manbalarini aniqlash.
- Tadqiqot usullarini tanlash.

II. Tarbiyaning nazariy asoslari.

- Tarbiya nazariyasi (mazmuni, maqsadi, vazifalari va usullari) bilan yaqindan tanishish.
- O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiyaga oid qarashlari.
- Tarbiyaga qo'yilayotgan zamonaviy talablar tizimi.

III. Tarbiya amaliyoti.

- Talabalarning tarbiyalanganlik darajasi.
- Talabalarning axloqiy barkamollikka intilish motivlari.
- Barkamollikka intilish jarayonida talabalarning mustaqil faolligi

IV. Tarbiya jarayonida vujudga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

- Axloqiy ongni shakllantirish jarayonida vujudga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash.
- Axloqiy hissiyotlarni shakllantirish jarayonida vujudga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.
- Tarbiya jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar.

Loyiha bosqichlarini amalga oshirish uchun ish turlari:

- Tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslash, uning muammosi, predmeti va ob'ektini aniqlash.
- Tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilash.
- Tadqiqotning axborot manbalarini aniqlash.
- Tadqiqot usullarini tanlash.
- Tahlilda foydalaniladigan muammolar tizimini aniqlash.
- Muammolarni tahlil etish ularning sabablarini aniqlash.
- Tahlil natijalari bo'yicha xulosa va takliflar berish, foydalanilgan manbalar ro'yxatini tuzish;
- Loyihani rasmiylashtirish;
- Hisobotni tayyorlash;

- Loyiha taqdimotini tayyorlash.

Loyihani taqdim etish shakli: “Tarbiya samaradorligini oshirish” nomli tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha hisobot.

Hisobotni tuzish tarkibi:

1. Loyiha mavzusi.
2. Loyiha maqsadi va yakuniy natija (mahsul).
3. Ishtirokchilar va ularning faoliyat turlari (jadval ko‘rinishida).
4. Loyiha mavzusi dolzarbligini asoslash.
5. Yechiladigan muammoni shakllantirish va asoslash.
6. Topshiriqlar tartibi.
7. Topshiriqni yechish natijasi – loyiha.
8. Foydalanilgan manbalar ro‘yxati.

II. TALABALAR UCHUN USLUBIY KO‘RSATMALAR

1. Loyihalashtirish faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun ko‘rsatma

1. Tayyorlov bosqichi

1.1. Loyiha mavzusining dolzarbligini asoslang va yechishingiz kerak bo‘lgan muammoni shakllantiring.

1.2. Loyiha maqsadi, predmeti, ob‘ekti va vazifalarini belgilang.

1.3. Tahlilda foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tizimini aniqlang va yechilishi lozim bo‘lgan topshiriqlarni tayyorlang. Ularni yechish usul va vositalarini tanlang.

1.4. Loyiha mavzusiga doir axborot manbalari bilan tanishing (o‘quv adabiyotlari, uslubiy qo‘llanma va boshqalar).

2-bosqich. O‘quv faoliyatini rejalashtirish

2.1. Maqsadga erishish ketma-ketligini ishlab chiqing.

2.2. Tarbiyaga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar tizimini o‘rganing va o‘lchov mezonlarini ishlab chiqing.

2.3. Test, anketa-so‘rov, suhbat usullaridan foydalangan holda tarbiya jarayonida erishilayotgan darajaga baho bering va yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni aniqlang.

3.4. Tarbiya jarayonida vujudga kelayotgan kamchiliklarni yo‘qotish yo‘llarini aniqlang.

3.5. Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish bo‘yicha xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqing.

2.6. Ish rejasini tuzing (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo‘yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlang; ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilang).

Loyiha bajarilishining ish rejasi

Topshiriq	Faoliyat turi	Tayyor mahsul ko‘rinishi	Bajarilish muddati
Tadqiqot loyihasining kirish qismini ishlab chiqish	Tadqiqot mavzusining maqsadi va predmeti va ob‘ektini belgilash, tadqiqot usullarini tanlash	loyihasi dolzarbligi, vazifalari, ob‘ektini mazmuni to‘g‘risida ma’lumot manbasi	1 hafta
Tarbiya nazariyasi (mazmuni, maqsadi, vazifalari va usullari) bilan yaqindan tanishish.	Tarbiya nazariyasi (mazmuni, maqsadi, vazifalari va usullari), O‘rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiyaga oid qarashlari, tarbiyaga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar tizimi, tarbiya jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishadi, ularni	Tarbiyani nazariy asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plami	2 hafta

Tarbiya amaliyotini o'rganish	Talabalarning tarbiyaga oid bilimlar tizimini o'rganadi, tahlil etadi va baholaydi.	Tarbiya amaliyotini o'rganadi va tahliliy xisobot tayyorlaydi	4 hafta
Talabalarni harakatga keltiruvchi motivlarni o'rganish va tarbiya jarayonini samaradorligini aniqlash.	Talabalarning axloqiy barkamollikka intilish motivlarini o'rganadi va tahlil etadi (Rokech testidan foydalanib); Axloqiy barkamollikka intilish jarayonida talabalarning mustaqil faollik darajasini tahlil etadi.		
Tarbiya jarayonida vujudga kelayotgan muammolar. Axloqiy ongni shakllantirish usullari va vositalarini o'rganadi, tahlil etadi, baholaydi va muammolarni aniqlaydi. Axloqiy hissiyotlarni shakllantirishning shakl va usullarini o'rganadi, tahlil etadi va muammolarni aniqlaydi.	Axloqiy ongni shakllanish jarayonini tahlil etadi, baholaydi va muammolarni aniqlaydi. Axloqiy hissiyotlarni shakllantirish tizimini tahlil etadi va kamchiliklarni aniqlaydi	Tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan muammolar tizimi haqida xisobot	2 hafta
Tahlil yakuni bo'yicha xulosa va takliflar.	Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish bo'yicha bajarish lozim bo'lgan vazifalar tizimi aniqlanadi	Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan uslubiy qo'llanma ishlab chiqadi.	3 hafta
Loyihani rasmiylashtirish	Loyiha ishi natijalarini tayyorlash	"Tarbiya samaradorligini oshirish" mavzusidagi tadqiqot loyihasi	1 hafta
Loyihalashtirish faoliyati natijalari va loyiha taqdimoti bo'yicha hisobotni tayyorlash	Mavzuning dolzarbligi va muammoni asoslab berish. Loyihaning maqsadi va vazifalarini ko'rsatib berish va hokazo.	"Tarbiya samaradorligini oshirish" mavzusidagi tadqiqot loyihasi bo'yicha hisobot	3 kun
MS POWER POINTda loyiha taqdimotini tayyorlash	Taqdimotni umumiy bezashni va slaydlarning mazmunini o'lchamlarini tanlash, yangi slaydlarni qo'shish va hokazo	Taqdimot	3 kun

3. Loyihani bajarish bosqichi.

3.1. Kerakli ma'lumotlarni to'plang, tizimga keltiring va tahlil qiling.

3.2. Tadqiqot natijalarini rasmiylashtiring (tayyor holatga keltiring).

3.3. *Yo'riqnomaga muvofiq* loyiha faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlang.

4. *Loyihani taqdimotga tayyorlash.*

4.1. MS POWER POINTda taqdimotlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmadan foydalangan holda loyiha taqdimotini tayyorlang.

4.2. *Loyihaning og'zaki taqdimotida* guruh a'zolari o'rtasida vazifalarni aniqlang.

5. *Ommaviy taqdimot, loyiha himoyasi va baholash.*

2. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn asosida) ifodalang.

2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5-6 so'z bilan) asoslang.

3. Loyihangizning maqsadi: uning nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko'rsating.

4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.

5. Loyihaning ish rejasi (jadval) ni bayon eting.

6. Vazifani yechimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.

7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi xulosalarni shakllantiring.

8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.

9. Baholang:

- loyiha sifatini;

- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o'tish yo'llari.

10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (xohishingizga ko'ra).

3. Loyihani MS POWER POINTda taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. MS POWER POINTda taqdimotga *tayyorlash jarayoni* quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo'shish;
- slaydlarni belgilashni tanlash;
- zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

2. Slaydlarni **texnik namoyish etish** quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

➤ Slaydlar *miqdori* (8-12).

➤ *Slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari:*

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;
- oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

➤ Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi

➤ Agar matn og'zaki bo'lsa, quyidagicha bo'lishi zarur:

- yuqori axborotli;

- bog'lovchili;

- aniq va qisqa;

- oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi)- bularning barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;

- (asosan termin va ta'riflarda) tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.

- Ovoz tiniq bo'lishi kerak. Taqdimotni ovoqli qilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozi eshitib bo'lmaydi, eng yaxshisi ma'ruzachining jonli ovozi hisoblanadi.
- *Rasmlar* aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlarning o'lchamini katta qilishga urinmang, faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.
- *Videotasmalar* taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.
- *Jadvallarda* ajratuvchi ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi, jadvallarning nomlanishi tagiga katta yozuvlarda berilishi zarur. Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumot kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi. Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.
- *Chizmalar* bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

4. Og'zaki taqdimotga tayyorlanishda rioya etiladigan qoida

Og'zaki taqdimot qoidalari

Taqdimot nimadan iborat bo'lishi lozim?

- loyiha muammosi, maqsadi va vazifalari tushunchasini namoyish etish; ishni rejalashtirish va amalga oshira olishni bilish;
- yechimlarni izlash jarayoni tahlili;
- topilgan yechim;
- muammoni muvaffaqiyatli va foydali hal etishni mustaqil tahlil qilish natijalari.

Shu jumladan:

Tartibga rioya qilish: guruh chiqishining umumiy davomiyligi – 7-10 daqiqadan kam va 15 daqiqadan ko'p bo'lmasligi lozim.

Guruh a'zolari chiqishlarining navbatma-navbatligiga rioya qilish va ularning harakatini kelishtirish

Barcha jadvalli axborotlarga sharhlar.

Taqdimotda nima bo'lmasligi lozim?

Loyiha ishining to'liq yoritilishi va loyiha mahsulotining mazmunini gapirib berish.

Ishtirokchilarning chiqishlaridagi qarama-qarshiliklar.

Noto'g'ri, tushunarsiz, noaniq ifodalar.

Muvaffaqiyatli taqdimot sirlari:

- Doimo ishonch bilan so'zlang.
- Aniq va o'z o'rnida gapiring.
- Intonatsiya (ifoda)ning muhim lahzalarini ajratib ko'rsatgan holda fikringizni tugallangan iboralar bilan bayon eting.
- Bir xil va sekin gapirmang, lekin haddan tashqari baland gapirish noto'g'ri.
- Muloyim va e'tiborli bo'ling, keskinlikni namoyon etmang, bag'rikeng (tolerant) bo'ling.
- Doimo tabassum bilan boshlang va yakunlang, lekin me'yorni saqlang.
- «Bo'lishi mumkin», «Kim biladi?», «...ehtimol» va h.k. kabi ifodalarni qo'llamang. Bunday ifodalar sizning nutqingizni noaniq qilib qo'yadi, Siz qat'iylikni yo'qotishingiz mumkin.
- Yuzma-yuz aloqani saqlang – tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir ishtirokchiga 3 soniyadan).
- Oyoqlaringizni chalishtirmang, qo'llaringizni orqangizda ushlamang, stolga, minbarga tayanmang, imo-ishorani kamaytiring, ruchkani, markerni o'ynamang, yelpig'ich va varaq bilan yelpinmang va h.k.
- Javob va takliflarga har gal minnatdorchilik bildiring!

5. Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- har bir talaba tomonidan bajarilgan loyihaning alohida (mavzular bo'yicha) qismlari (eng yuqori 5 ball);
- hisobot (eng yuqori 5 ball);
- MS POWER POINTda loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball);
- og'zaki taqdimot va loyiha himoyasi (eng yuqori 5 ball).
- Jami20 : ball

5.1. Bajarilgan loyiha bo'yicha mahsulotni baholash

	Baholash mezoni	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 3 ball
2.	Loyiha: mavzuga oid bo'lgan yetarli miqdorda, sifatli axborotdan iborat	Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 1 ball: - yangi; - loyiha vazifasini to'liq aks ettiradi; - keng manbalarga asoslangan
		Namoyish etuvchi material (jadval va chizmalarda) bo'lsa, maks.1 ball: - ma'lumot mazmunini to'liq aks ettiradi; - standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan

5.2. Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash

	Baholash mezoni	Baholash ko'rsatkichlari
1	2	3
1.	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks. 0,5 ball
2.	Tanlangan mavzu asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 0,5 ball
3.	Yechimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarining bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0,5 ball
5.	Loyiha vazifalarining belgilanishi	Loyiha vazifalari aniq belgilangan bo'lsa, 0,5 ball
6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondoshuvlarga muvofiq tuzilgan bo'lsa, 0,5 ball
7.	Vazifalar bo'yicha loyihaning ish natijalarini keltirish	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko'rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilgan bo'lsa, maks. 0,5 ball
8.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa, maks. 0,5 ball
9.	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan manbalar ro'yxati bajarilgan vazifalar bo'yicha tarkiblashtirilgan va standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lsa, 0,5 ball
10.	Loyiha faoliyatini o'zi baholashi	Tanqidiy baho: - mahsul sifati, - loyiha ustida ishlash: har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni yengish berilgan bo'lsa, ilovalarda loyiha ishtirokchilari-

		ning anketalari va loyiha ishining ish materiallari bo'lsa, 0,5 ball
--	--	--

5.3. Loyihani MS POWER POINTda bajarilgan taqdimotini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish	Yo'riqnomaga izchilligi bo'lsa, maks. 3 ball
2.	Slaydlarni texnik namoyish etish yo'riqnomasiga rioya etish	Taqdimot tayyorlashda yo'riqnomaga rioya etilgan bo'lsa, 1 ball
3.	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etish	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo'lsa, 1 ball

5.4. Bajarilgan loyihaning og'zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Og'zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; so'zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rioya etishlari (7 – 15 min.); taqdimot vaqtida odobsizlik holatlariga yo'l qo'yilmasliklari, maks. 3 ball
2.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda barcha guruh a'zolari ishtirok etgan bo'lsa, maks. 1 ball Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo'lsa, maks. 1 ball

5.5. Loyihadagi yutuqlarni o'zi baholashi uchun anketa

F.I.Sh. _____

O'quv guruhi _____

1. Quyidagi baholash mezonlaridan foydalanib, **o'zingizning loyihadagi yutuqlaringizni baholang**: 2 ball – to'liq egallaganman; 1 ball – qisman egallaganman; 0 ball – bilmayman.

Bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, qobiliyatlar	Loyihaning boshlanishi	Loyiha ning tugallanishi
1	2	3
1. Loyihalashtirishning umumlashtirilgan algoritmini bajarish qobiliyati:		
- g'oyani ilgari surish,		
- muammoni ajratib ko'rsatish,		
- maqsadlarni belgilash va ularni hal qilish vazifalarini ifodalash;		
- vazifalarni hal etishning optimal usullari va vositalarini asoslab tanlashning amalga oshirilishi;		
- loyiha topshirig'ini ishlab chiqish;		
- birgalikdagi ishni rejalashtirish va loyihadagi vazifalarni taqsimlash;		
- natijalarni rasmiylashtirish; faoliyat natijalarining ijtimoiy taqdimotini o'tkazish (ma'ruza shaklidagi og'zaki va texnik hamda dasturiy vositalardan foydalanib ko'rgazmali);		
- bajarilgan ish haqidagi yozma hisobotni tayyorlash;		
- o'zini o'zi baholash va refleksiyaning amalga oshirish.		
2. Hamkorlik qilishga tayyorlik qobiliyati:		
- jamoada samarali o'zaro bahamjihat harakatni amalga oshirish;		
- nizolarni kuch ishlatmasdan tartibga solish;		
- kompromiss ishlash va konsensusga erishish.		

3. Ogʻzaki muloqot qilishga tayyorlik qobiliyati		
- ogʻzaki dialog va polilog yuritish;		
- tanqidiy muhokama yuritish: boshqalar fikrini tinglash va eʼtiborga olish; oʻz fikrini bildirish va uni dalillab, himoya qilish.		
4.Zamonaviy texnika vositalarini egallaganlik:		
kompyuterni;		
faksni;		
printerni;		
modemni;		
kseroksni.		
5. Axborot va kommunikatsiyaning zamonaviy texnika vositalarini egallaganlik:		
- elektron pochta,		
Internetni.		
6. Axborotlarni izlash, ular bilan ishlash, qabul qilish, joriy etish, oʻzgartirish, saqlash, yetkazish va taqdim qilishning texnik va dasturiy vositalarini egallaganlik.		
7.Axborot bilan ishlash:		
- axborotlarni kataloglar boʻyicha topish,		
- axborotlarni kontekstiga qarab izlash, gipermatnni va Internetda izlash;		
- axborotlarni tuzilmalash, asosiysini ajratish.		
- axborotlarni grafik shaklda taqdim etish.		
7. Quyidagilarga tayyorlik qobiliyati:		
- oʻz qarorlarini qabul qilish va oʻz zimmasiga masʼuliyat olish;		
- turli ijtimoiy rollar: yetakchi, ijrochi va boshqalar rollarini bajarish;		
- tashabbusni oʻz qoʻliga olish;		
- oʻzini oʻzi intizomga solib turish;		
- oʻz kuchlariga ishonish.		

2. Oʻzingizning loyihadagi faoliyatingiz natijalarini baholang va tahlil qiling:

1. Sizga loyiha topshirigʻini muvaffaqiyatli bajarishga nima yordam berdi (keraklisining tagiga chizing, qoʻshimcha qiling): bilimlar, malakalar, qobiliyatlar, boshqalar yordami, oʻqituvchining maslahatli yordami _____

2. Sizning aybingizga koʻra nima bajarilmay qoldi? _____ Buning sabablari (keraklisining tagiga chizing, qoʻshimcha qiling): tushunmaslik, qila bilmaslik, axborot kamligi _____

3. Siz nimani obʼektiv sababga koʻra bajara olmadingiz, u nimadan iborat edi va kelgusida magʻlubiyatlarni qanday qilib bartaraf qilish mumkin? _____

4. Agar hammasi muvaffaqiyatli yakunlangan boʻlsa, buning garovi nimada edi? _____

5.6. Oʻquv loyihaviy faoliyatni reyting baholash jadvali

talaba _____ guruh _____

Baholash mezonlari	Baholash koʻrsatkichlari			
	Maz-	vaqtida	Ish-	baho (ball)

	munli faollik (maks. ball__)	bajaril- ganlik (maks. ball__)	ning unum- liligi (maks. ball__)	o‘z- o‘zini bahol ash	Guruh lar	O‘qi - tuv chi
Loyihaning maqsadi va vazifalarini ifodalash, uni bajarish usullari va vositalarini aniqlash						
Ishni rejalashtirish		-	-			
Alohida (individual) vazifani bajarish						
Mahsulotni rasmiylashtirish	-	-				
Hisobot tayyorlash	-	-				
Taqdimot tayyorlash	-	-				
Taqdimot va himoya		-	-			
Jami ---ball						
Yakuniy --- ball				Reyting baholash -		

III. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchi	talabalar
<i>Auditoriya ishi: tayyorgarlik bosqichi</i>		
1.O'quv mashg'ulotiga kirish	Mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarining prognoz qilinadigan o'quv yutuqlari ro'yxatini ma'lum qiladi; o'quv mashg'ulotidagi ish tartibi va xususiyatlari, o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi	O'quv mashg'ulotidagi ish tartibi va xususiyatlari, o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishadi
2. Asosiy bosqich	Loyiha faoliyati mazmuni va uning bo'lg'usi mutaxassisning asosiy vakolatlarini shakllantirishga ta'siri bilan tanishtiradi. Talabalarni "Tarbiya samaradorligini oshirish" mavzusi bo'yicha slaydlar asosida qisqacha axborot beradi (ilova-1). Talabalarni faollashtirish va bilimlarini tekshirish uchun so'rovnoma o'tkazadi (ilova -2). Mavzuni taklif qiladi ilmiy tadqiqot doirasini ifodalaydi. Talabalarni guruhlarga bo'ladi va ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha muammo va uning aspektlarini aniqlash vazifasini yuklaydi.	Guruhlarga birlashishadi. Mavzu bo'yicha muammo va uning aspektlarini aniqlaydi, muhokama etishadi.

	Talabalarning loyiha maqsadi va uning vazifalarini ifodalashi bo'yicha munozara yoki fikriy hujum uyushtiradi. Uning kutiladigan natijasi – mahsulot va uning taxminiy foydalanuvchilarini ifodalaydi	Savollarga javob berishadi; ziddiyatni aniqlashadi, ularni hal qilish zarurligini bilishadi; muammoni va loyiha mavzusini ifodalashadi Loyiha maqsadi va uning vazifalarini ifodalashadi.
	(talabalarga ifodalashni taklif qiladi)	Loyiha natijasi – mahsulot va uning taxminiy foydalanuvchilarini belgilashadi
	Loyiha topshirig'ini qo'yadi. Axborot manbalari, uni yig'ish va tahlil etish usullarini tavsiya qiladi. Ilmiy tadqiqot o'tkazish jarayonini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Foydalanish mumkin bo'lgan testlar tizimini ko'rsatadi (Kettelning 6- faktorli so'rovnomasi, Rokechning qadriyatlar yo'nalishini o'rganishga bag'ishlangan metodikasi 3-ilova.) Loyiha faoliyati natijalari va umuman jarayonni baholash rusumlari va mezonlari bilan tanishtiradi	Loyiha topshirig'i bilan tanishishadi. Savollar berishadi
	Talabalarning loyiha ustida ishlash shaklini tanlashini tashkil qiladi. Loyiha guruhlari shakllantirishini uyushtiradi	Loyiha ustida ishlash shaklini tanlashadi. Guruhlarga birlashishadi
	Guruh ishi uchun topshiriq beradi, guruhda ishlash qoidalarini eslatadi: - loyihadagi vazifalar va faoliyat turlarini ajratish, ularni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash (guruhli loyihada); - loyiha faoliyati algoritmini ishlab chiqish; - loyiha vazifalarini bajarish, uning natijalarini ifodalash va taqdimot usullari va vositalarini tanlash (2-ilova); - ishchi rejasini tuzish.	Loyiha faoliyatini loyihalashtirish va rejalashtirish bo'yicha guruhlardagi ishni tashkil etishadi: loyihani bajarish yo'nalishlari va bosqichlarini belgilashadi, guruh a'zolari o'rtasidagi funksiyalarni taqsimlashadi, hamkorlik shakllarini belgilashadi, loyiha vazifalarini bajarish, uning natijalarini ifodalash va taqdimot usullari va vositalarini tanlashadi. Loyiha ishlarining ishchi rejasini vazifalar, ularni bajarish muddatlari, tayyor mahsulot turini va mas'ullarni ko'rsatib tuzishadi


3. Yakunlovchi-baholash bosqichi	Loyiha topshirig'i ustidagi ishning asosiy natijalarini belgilash va loyiha faoliyatini rejalashtirish bo'yicha xulosa chiqaradi. Talabalar e'tiborini loyiha ishlari mazmuniga va loyihaning ijro bosqichida ularni bajarish grafigiga qaratadi. Savollarga javob beradi	Savollar berishadi
Auditoriyadan tashqari ish: ijro bosqichi		
1. Loyihaning bajarilishi. 2. Natijalarning ifodalanishi. 3. Hisobot tuzilishi. 4. Taqdimot tayyorlanishi	Maslahat beradi, guruhlar ishini muvofiqlashtiradi, ular faoliyatini rag'batlantiradi, kuzatadi, axborot manbalarini izlashda yordam beradi, o'zi axborot manbai bo'ladi, loyiha ishlari monitoringi va nazoratini amalga oshiradi	Individual vazifalarga binoan ishlarni bajarishadi. Faol va mustaqil ishlashadi, har kim o'z vazifasiga muvofiq va birgalikda: - turli manbalardan axborot yig'ishadi, tahlil etishadi va umumlashtirishadi; - tadqiqotlar o'tkazishadi, hisob-kitoblarni bajarishadi; - zaruratga qarab maslahatlashishadi; - oraliq natijalarni muhokama qilishadi; Hamma olingan natijalarning umumiy yig'ilishi va muhokamasini o'tkazishadi. Loyiha mahsulotini ifodalashadi. Hisobot tuzishadi. Loyihadagi yutuqlarning o'zini-o'zi baholash anketalarini to'ldirishadi. Loyiha ishi natijalari taqdimotini rasmiylashtirishadi
Auditoriya ishi: yakunlovchi bosqich		
1.O'quv mashg'ulotiga kirish	Loyihalar taqdimotiga ko'rsatma beradi: guruhlarining bajarilgan loyihalarni taqdim etishi reglamenti va izchilligini belgilaydi. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini eslatadi. O'zaro baholash jadvalarini tarqatadi	
2. Asosiy bosqich	Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruh taqdimoti yakunlari bo'yicha: - mazmuni bo'yicha aniqlovchi savollar va har bir qatnashchining roli haqida aniq maqsadga qaratilgan savollar beradi; - kursdoshlar savollariga javoblar vaqtida quvvatlaydi va	Guruhlar o'z ishi natijalari haqida ma'ruza qiladi va ularni belgilangan shaklda taqdim etadi. Savollarga javob berishadi

	rag'batlantiradi	
	Guruhlarning loyiha taqdimoti muhokamasi va o'zaro baholashini uyushtiradi	Jamoa bo'lib muhokama qilish orqali: taqdimot, olingan mahsulot, loyiha faoliyati natijalarini baholashadi
	Talabalar bilan birga loyiha ustidagi ish jarayoni va yakunlarini muhokama qiladi, notiqnlarni rag'batlantiradi, o'z mulohazalarini nazokat bilan bildiradi, agar zarur bo'lsa, ayrim talabalarning yutuqlari va xatolari haqida o'z fikrini individual bildiradi	
3. Yakunlovchi-baholash bosqichi	Loyiha faoliyatining asosiy natijalarini aniqlash bo'yicha xulosa chiqaradi. Guruhlar faoliyati, loyiha topshirig'i ustidagi individual ish natijalariga baho beradi. O'zaro baholashga yakun yasaydi. Loyiha va loyihali ta'lim maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi va baholaydi. Savollarga javob beradi	Natijalar, jarayon, o'zining undagi ishtirokini boshqalar baholarini hisobga olib o'zi baholaydi

Ilova -1


Mavzu bo'icha slaydlar:

1-rasm



2-rasm.

Tarbiya vazifalari.



Ilova-2

Faollashtiruvchi savollar:

1. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
2. Tarbiya masalasini O'rta Osiyo mutafakkirlaridan kimlar o'rgangan?
3. Tarbiyaning qanday tarkibiy qismlarini bilasiz?
4. Bugungi kunda tarbiyaga qanday talablar qo'yilmoqda?
5. Talabalarning tarbiyalanganlik darajasiga qanday baho berasiz?
6. Axloqan barkamol shaxsda qanday sifatlar shakllangan bo'lishi kerak?

Ilova-3

Rokechning qadriyatlar yo'nalishini aniqlashga bag'ishlangan testi

Terminal qadriyatlar:

- Faol harakatdagi hayot (to'laqonli emotsiyalarga boy hayot)
- Hayotiy donolik (hayotiy tajriba asosida vujudga keluvchi mantiqiy va sog'lom fikr)
- Salomatlik (jismoniy va psixik)
- Qiziqarli ish.
- Tabiat va san'at go'zalligi
- Muhabbat
- Moddiy jihatdan ta'minlangan hayot
- Yaxshi va sadoqatli do'stlarga ega bo'lish
- Jamoa tomonidan tan olinish
- Bilish
- Maxsuldor hayot (o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanish)
- Rivojlanish (o'z ustida ishlash, jismoniy va ma'naviy barkamollikka intilish)
- Yengil hayot kechirish (burchni his etmaslik)
- Erkinlik (mustaqil fikr va hatti-harakat)
- Baxtli oilaviy hayot
- Boshqalarning baxti (yoru-do'stlari, millatning va butun dunyodagi insonlarning ravnaqi va farovonligi)
- Ijod
- O'ziga ishonch (ichki uyg'unlik, ichki qarama-qarshiliklardan ozod bo'lish)

Instrumental qadriyatlar:

- Orastalik, tartiblilik (faoliyatda tartibga amal qilish, buyumlar tartibi)
- Tarbiyalanganlik

- Yuqori talablar
- Hayotni xursandchilik bilan qabul qilish
- Vazifalarni o'z vaqtida bajarish, intizomlilik
- Mustaqillik (mustaqil faoliyat yuritish)
- Bilimdonlik
- Mas'uliyatlilik (burchni his etish, so'zini ustidan chiqish).
- Ratsionallik (vaziyatni tahlil etgan holda, mantiqan fikrlab qaror qabul qilish)
- O'z-o'zini nazorat qilish
- O'z fikrni va g'oyalarini himoya qila olish
- Mustahkam iroda (qiyinchiliklar oldida tiz cho'kmaslik)
- Boshqalarning fikrlari va qarashlarini hurmat qilish
- Xaqgo'ylik
- Sezgirlik (g'amxo'rlik)
- Dunyoqarashning kengligi
- Faoliyatdagi samaradorlik (mehnatsevarlik, mahsuldorlik)

II. BOB «KASBIY PEDAGOGIKA» FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR

1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari:

- Hamkorlikda fikr almashish;
- Suhbat;
- Tahlil;
- Munozara;
- Muzokara;
- Amaliy vazifalar bajarish;
- Biror narsani qurish (yasash);
- Masalalar yechish;
- va boshqalar.

Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarini tashkil qilishda: o'qituvchi-sinf, o'qituvchi-kichik guruh, o'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi (juftlikda ishlash), kichik guruh-kichik guruh, kichik guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi.

Hamkorlikda o'qitish – bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka o'quvchi hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi. Umuman, hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiiy ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.
2. O'quvchilar 2-5 a'zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.
3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.
4. O'quvchilar ijobiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etish,

o'quvchilarning bir-birlariga ko'maklashishlari talab etilishini hisobga olgan holda tuzilgan bo'ladi.

5. O'quvchilar o'z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o'qishga, ta'lim olishga, shaxsan mas'uliyatli va javobgardirlar.

Hamkorlikda o'qitish nima uchun kerak:

Hamkorlikda o'qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- O'quvchilarning o'rganish jarayonini boyitadi;
- O'quvchilarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;
- O'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;
- O'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- Axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- O'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;
- Turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noan'anaviy dars shakllarini keltiramiz:

Matbuot konferensiyasi darsi – dars mavzusini savol-javoblar orqali o'zlashtirish mashqi.

Quvnoqlar va zukkolar klubi darsi – qiziqarli savollar va ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o'rgatish mashqi.

Guruhlarda ishlash darsi – o'quvchilarning bir nechta guruhlariga bo'linib vazifalar bajarishini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqi.

O'zaro o'qitish darsi – o'quvchilarning dars mazmuni bo'yicha matnning ayrim abzatslari yoki shunga o'xshash kichik bo'lakchalarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o'zlashtirish darsi.

Tanlov darsi – sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik ko'rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g'oliblarni aniqlash darsi.

O'quvchilar olib boradigan dars – dars mavzusini o'quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o'quvchilar faolligini oshirish mashqi.

Juftlikda ishlash (binar) dars – o'quvchilarning juft bo'lib, dars mavzusini birgalikda o'zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlashi darsi. Bunda zarur bo'lganda juftliklar dars davomida turlicha o'zgartirilishi mumkin.

Dialog darsi – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrlarini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars mavzusini o'quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat.

"Aylana bo'ylab mashq" darsi – o'quvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o'zlashtirish yoki o'tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Innovatsiyalar darsi – o'quv fani sohasidagi yoki kollej hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo'llash bo'yicha taklif va loyihalar bilan tanishtirish darsi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarni hamijodkorlikka o'rgatish

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishning o'ziga xos pedagogik, psixologik va uslubiy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- *tashkiliy-pedagogik asoslari* – o'quv reja, dastur, dars mavzusi, DTS talablari va ularga muvofiq darajada o'zlashtirilishi talab qilinadigan yangi bilim hajmi asosida o'quv mashg'uloti ishtirokchilarining hamkorlikda ishlashlari uchun shart-sharoit, imkoniyatlarni belgilash va amalga oshirish;
- *psixologik asoslari* – o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish, mashg'ulotda har bir o'quvchi uchun qulay psixologik muhit yaratish, erkin muloqotni sifatli uyushtirishda dars mavzusi, mazmuni, qo'llanilayotgan

tushunchalar, atamalar, ta'riflar, formulalar va boshqa shartlarning o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash;

- *uslubiy asoslari* – mashg'ulot uchun zarur vositalarni oldindan ishga tayyorlash, ularning talablar darajasida sifatli bo'lishini ta'minlash. Muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish va boshqalar.

Hamkorlikda o'qitish samaradorligini ta'minlovchi omillar:

- ✚ o'quvchilarning dars mazmuniga ijodiy yondashuvi;
- ✚ dars jarayonidagi axborotlarni tahlil va tanqid qilish, o'z xulosalarini asoslash;
- ✚ bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash;
- ✚ amaliy topshiriqlar bajarish uchun vaqtni ko'proq ajratish;
- ✚ hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilarning bir-biriga muvaffaqiyatga erishishlari uchun ko'maklashuvi va boshqalar.

Guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish

Guruhlarda ishlash – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2tadan–8tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi topshiriq – natija emas, balki guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.


Guruhlarda ishlash qoidasi:

- ✚ Sherigingizni diqqat bilan tinglang;
- ✚ Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashing;
- ✚ Agar yordam kerak bo'lsa, albatta murojaat qiling;
- ✚ Agar sizdan yordam so'rashsa, albatta yordam bering;
- ✚ Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart.

Aniq tushunmog'imiz lozim:


- Boshqalarga o'rgatish orqali o'zimiz o'rganamiz!
- Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho'kib ketamiz.

Guruhlarni joylashtirishning eng maqbul chizmasi



Guruhlarda hamkorlikda faoliyatni tashkil etish texnologiyasi

I. Tashkiliy bosqich



Yo'riqnomaga talab

Yo'riqnoma quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

- Topshiriqning aniq ifodalanishi;
- Kutilayotgan natijalarga aniq yo'naltirish;
- Tajribada sinalgan bo'lishi kerak: bu yo'riqnomani avval o'zi yoki hamkasbidan bajarishini iltimos qilish kerak;
- Guruh topshiriqni mustaqil bajarish bo'yicha to'la tavsiyanomalar bo'lishi kerak;
- Har bir ta'lim oluvchi uchun tushunarli qilib yozilishi kerak.

8. Ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga tayyorlash

O'quv guruhida xayrihoh munosabat muhitini yaratadi: faqat shunda ular hamkoriy ishni ijodiy bajaradilar.
(Ta'lim oluvchilar topshiriqlarni guruhlarda bajarish qoidasini bilishlari va yo'naltirilgan bo'lishlari kerak).

Gruhlarda ishlash qoidalari:

- Har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;
- Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;
- Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;
- Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;
- Har kim guruh ishi natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.

9. Guruhni bo'lish yo'lini tanlash

Kichik guruhlarini birlashtirish yo'lini tanlaydi. *Ta'lim oluvchilarni kim guruhlarga bo'ladi?*, aniqlaydi. Agarda bajarish uchun turli topshiriqlar berilsa, ular guruhni o'z qiziqishlari bo'yicha tanlashlari mumkin.

10. Gruhlarda ta'lim oluvchilar bajaradigan vazifalarni aniqlaydi
аниқлайди

Ta'lim oluvchilarni bajaradigan vazifalarini aniqlaydi: maslahatchi, sardor, ma'ruzachi, bayonnomachi, rasmiylashtiruvchi va boshqalar.

11. Ish joyini tayyorlaydi


Stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda:
- ta'lim oluvchilar auditoriyada erkin harakatlana olsinlar;
- har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishi va bir-birlarini korishi va eshitishi kerak;
- zarur o'quv qo'llanmalar barchaga tushunarli bo'lishi kerak.

2. Organayzerlardan foydalanish mahorati

Klaster metodi

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u talabalarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puhta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

« VENN» DIAGRAMMASI



«T» sxema asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish («T» sxema jadvali)

+ (ha, ijobiy)	- (yo'q, salbiy)

T-jadval
Konsepsiyaga, voqelikka, ob'ektga nisbatan munosabat bildirish uchun qo'llash mumkin

1-bosqich
Talabalar ushbu sxemani tuzish qoidalari bilan tanishtiriladi

2-bosqich
Yakka, juftlikda yoki guruh ichida sxema asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi

3-bosqich
Yagona jadvalga tushiriladi

SWOT -tahlili


- S- kuchli tomoni
- W- kuchsiz tomoni
- O- imkoniyatlari
- T- xavf-xatar

Strengths	Weakness
Opportunities	Threats

«Nima uchun?» sxemasi

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Talabalarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema talabalarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Talabalarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.


«Nima uchun?» sxemasiga asosan talabalar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi



«Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

«Nima uchun?» texnikasining sxemadagi ko‘rinishi



«Qanday?» ierarxik diagrammasi

«Qanday?» ierarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalar:

1. Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi.

2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.


3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi kerak.

5. Yangi g'oyalarni qanday grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz tanlab oling (daraxt, kaskad va b.). Bunda muammo shajarasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

6. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasining sxematik ko'rinishi




«FSMU» mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi texnologiya

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (talabalarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini

boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baxslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvch-talabalarni, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalliklarini baholashga hamda talabalarni bahslashish madaniyatiga o'rgatishga xizmat qiladi.

«FSMU» mantiqiy fikrlashga o'rgatuvchi texnologiyadan foydalanish jarayonining bosqichlari





«BLITS - SO'ROV» TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya biror jarayonning ketma-ketligini to'g'ri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh a'zolari va boshqa guruhlarining a'zolarini fikrlari bilan tanishishga imkon beradi.

Harakatlar ketma-ketligi avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishishga yordam beradi.

Klaster tuzish qoidasi



«VEER» TEXNOLOGIYASI

Bu texnologiya murakkab, ko'pqirrali, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, fazilatlar, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalarini, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

3. Kasb ta'limida keys texnologiyalardan foydalanish

1. Keys to'g'risida umumiy tushuncha.

Keys-stadi (inglizcha case - to'plam, aniq vaziyat, stadi - ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi

variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Keys – bu real hayotning «bir bo'lagi» (ingliz terminalogiyasida TRUE LIFE).

Keys – faqat vaziyatni to'g'ri yoritish emas, balki vaziyatni tushuntirish va baholashga imkon beradigan yagona ma'lumot kompleksi.

Keysda aks etgan vaziyat, bu real yoki sun'iy hodisani institutsional tizimda ma'lum vaqtda hayotda yuzaga kelishini aks ettiradi.

Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzidagi in'ikosidan iboratdir.

Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat sub'ektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Muammoli vaziyat. Bunda sub'ektni hozirgi sharoitda yoki kelgusida maqsadiga erishishiga xavf tug'diruvchi vaziyat tushuniladi

U ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Keysolog faoliyati mazmuni:

- Keysning o'quv kursi tuzilmasidagi o'rnini belgilash.
- Uning ta'lim maqsadini to'liq ifoda etish.
- Keysning talabalarning ta'limdagi yutuqlari natijalari uchun «mas'uliyat zonasi»ni aniqlash: o'zlashtirilishi/kengaytirilishi/rivojlantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar ro'yxati
- Keys hayotiylik, kabinetli yoki ilmiy-tadqiqotchilik tusida bo'lishi?
- Keys ob'ekti aniq shaxs (shaxslar) yoki korxona yohud u ko'p ob'ektki bo'ladi?
- Faqat shundan keyin u institutsional tizimni tanlaydi (kabinetli keys uchun) yoki topadi (hayotiy yoki ilmiy-tadqiqotchilik keysi uchun).

Keys uchun axborot yig'ish usullari:

Intervyu, suhbat, o'rganish (arxiv hujjatlari, hisobotlarni), kuzatuv va h.k.

Axborot yig'ish vositasi: so'rovnoma varag'i, intervyu olish varag'i, anketa, har xil jadvallar va boshqalar.

Axborot manbalari: statistik materiallar, hisobotlar; vaziyat ob'ekti faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, axborotlar; Internet; ommaviy axborot vositalari; korxona rahbarlari, uning ta'minotchilari va iste'molchilari, tarmoqdagi ekspertlar yoki turli investitsion fondlar tahlilchilari bilan muloqot; talabalarning o'quv va diplom loyihalari, magistrlik dissertatsiyalari; ilmiy maqolalar, monografiyalar.

1. Keys texnologiyasining mazmuni.

Maqsadni bayon etish - o'quv kursi strukturasi keysni o'rnini aniqlash.

Keysni ta'lim maqsadini ko'rsatib berish.

Talabani o'quv yutuqlari, natijalari uchun keysni "javobgarlik zonasi"ni aniqlash: keysni ishlab chiqish jarayonida bilimi va saviyasi, o'zlashtirishi, tafakkuri va boshqalar.

■ **Keysolog vazifasi:** Siz bozorda muvaffaqiyatga olib keladigan harakat rejasini bayon etishingiz va asoslab berishingiz lozim. Siz qanday yangi mahsulot bilan bozorga chiqishingizni, bozorda o'z hissangizni qanday saqlab turishingizni va kelgusi moliyaviy ko'rsatgichlaringizga qanday erishishingizni ham ko'rsatib berishingiz kerak.

Muammoning mazmuni- qaysidir harakatda zaruriy holat va uni tatbiq etishdagi sharoitlarini yetishmasligi o'rtasidagi qarama – qarshiliklarni aniqlash.

Asosiy muammo (muammo bo'limlari)ni belgilab olish.

- **Keys dasturiy kartasi tuzilmasi** - ma'lumotlarini to'plash va keys uchun vaziyatni yoritadigan asosiy savollar (tezislar) ro'yxatidan iborat.

☞ *3-namuna. Keys dasturiy kartasi savollar shaklida ishlab chiqilgan. Bu talab – keysolog uchun ma'lumotlarni to'plashda (intervyu ko'rinishida va uning izohi) yengillik yaratib beradi.*

Izlanish - qaror - qabul qiladi:

- Keys dala, kabinet yoki ilmiy – tadqiqot yo‘nalishidami?
- Keys ob‘ekti aniq shaxs, korxona yoki ko‘p ob‘ektlimi?

Institutsional tizimni (firma tashkilot, korxona va boshqalar) aniqlaydi (dala yoki ilmiy – tadqiqot yo‘nalishi uchun) yoki tanlaydi (kabinet keysi uchun)

Ma‘lumotlarni to‘plash usullari va vositalarini tanlash - intervyu, suhbat, o‘rganish (arxiv xujjatlari, xisobotlar), kuzatish, so‘rov varaqasi, turli jadvallar va boshqalar.

Ma‘lumot manbalari:

- Statistik materiallar, hisobotlar;
- Ma‘lumotnomalar, ma‘lumotlar, vaziyat ob‘ekti to‘g‘risidagi boshqa ma‘lumotlar va b.;
- Internet;
- ommaviy ma‘lumot vositalari,
- korxona raqobatdoshlari, uning mol yetkazib beruvchilari va iste‘molchilari, tarmoq ekspertlari yoki turli investitsiya fondlari analitiklari bilan muloqot;
- o‘quv va diplom loyihalari, talabalarining magistrlik dissertatsiyalari,
- ilmiy maqolalar, monografiyalar;
- korxona rahbarlari bilan intervyu.

Keys matnini yozish- Hajmiga ko‘ra keys qisqa, o‘rta hajmda yoki yirik hajmda bo‘ladi.

Keysdagi muammoni topshiriq usullari

1-usul - muammo keysolog tomonidan yoritib beriladi.

2-usul – vaziyatdagi muammo aniq ko‘rsatiladi, lekin bunda vaziyatdagi bir zaruriy element to‘g‘risida ma‘lumot berilmaydi (Masalan: hamkor to‘g‘risida).

3-usul - matnda vaziyatdagi sub‘ektlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik aniq ko‘rsatilmaydi.

Keys strukturasi

I. Pedagogik annotatsiya

1. Keys mo‘ljallangan predmet, bo‘lim, mavzu, ta‘lim darajasi, kursni ko‘rsatib berish
2. Keysni maqsadlari (ta‘lim maqsadlari, rejalashtiriladigan o‘quv natijalari)
3. Keysni muvaffaqiyatli yechim uchun talabalar bilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar
4. Keysda real institutsional tizim faoliyati yoki keysolog tomonidan vaziyat su‘niy modellashtirilgan to‘g‘risida ma‘lumot
5. Ma‘lumot olish uchun manbalar to‘plami
6. Xususiyatlariga ko‘ra keys tavsifi (syujet mavjudligi, keys ob‘ekti, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tarkibiy xususiyatlari, o‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli, rasmiylashtirish usuli)
7. Kaysi o‘quv predmetini o‘rganish jarayonida foydalanish mumkin?

II. Keys matni

1. Kirish

O‘z ichiga oladi:

- keysning dolzarbligini asoslash;
- o‘rganiladigan maqsadni ko‘rsatib berish;
- talabalar keysni yechish natijasida erishishlari mumkin bo‘lgan o‘quv natijalarini va ularning kelgusi professionalizmdagi ahamiyati ko‘rsatib berish;

Keys-topshiriqda shuningdek o‘quv topshirig‘i ham beriladi.

2. Vaziyat

■ Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat amaliy faoliyatni modellashtirish uchun zaruriy va yetarli miqdordagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi, ularga quyidagilar kiradi:

- vaziyatni diagnostikasi va tahlili,
- muammoni asoslash,
- muammoni hal etish uchun aniq fikrlarni loyihalashtirish;

■ Jadval, chizma, grafiklar ko‘rinishidagi statistik ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi

■ Muammo quyidagi usullardan biri ko‘rinishida berilishi mumkin:

- 1) keysolog tomonidan tushuntirilishi;
- 2) aniq yoritib berilishi;

3) aniq yoritib berilishi, lekin bunda vaziyatining zarur elementi to'g'risida ma'lumot yo'qligi;

4) qarama-qarshilik aniq bayon etilmagan.

■ Keys savollari va topshiriqlari (berilishi – keysolog ixtiyoriga ko'ra) aniq ko'rsatiladi va keysning maqsadini aniq aks ettiradi

III. Talabalar uchun uslubiy ko'rsatmalar

Quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Yechish algoritmi (trening keysining zarur elementi);
- yoki talabani keys bilan mustaqil ishlash instruksiyasi, mustaqil yoki guruh bilan;
- Vaziyatni tahlili varag'i.
- Talabalar uchun o'quv – uslubiy materiallar. Jumladan qisqa izohi, chizma, jadvallar. Bular hammasi talaba bilimini logik tizimga tushishiga olib kelishi uchun amalaga oshiriladi

IV. O'qituvchi-keysolog tomonidan keysni yechish varianti

O'z ichiga oladi:

- vaziyat tahlili va muammoni yechish;
- keysdagi savollarga javob berish.

3. Keys texnologiyasi va uning turlari.

Amaliy vaziyat – keys–stadi hayotdan olingan mavjud vaziyatlarga asoslangan holda tashkillashtirilgan yoki oddiy muammolarni keltirib chiqaruvchi sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatlarning ta'lim oluvchilarni maqsadga muvofiq ravishda yechimini izlashni o'rgatish usuli.

1. Keys manbasiga qarab.
 - Amaliy keyslar (hayotiy vaziyatlarni yechimini topishga qaratilgan).
 - Ta'limiy keyslar (bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan)
 - Ilmiy –tadqiqot keyslari (tadqiqotga asoslangan keyslar)
2. Syujet mavjudligiga qarab.
 - SYUJETLI
 - SYUJETSIZ
3. Keys ob'ektiga qarab
 - SHAXSIY
 - TASHKILIY-INSTITUTIONAL
 - KO'P SUBEKTLI
4. Hajmiga qarab
 - Qisqa
 - O'rtacha hajmda
 - Katta hajmli
5. Tuzilishiga qarab
 - TIZIMLASHTIRILGAN
 - TIZIMLASHTIRILMAGAN
7. Vazifalarni qo'yilishiga qarab
 - SAVOLLARGA ASOSLANGAN
 - TOPSHIRIQLARGA ASOSLANGAN
8. Didaktik maqsadiga ko'ra
 - Muammoning yechimini yoki konsepsiyasini illyustratsiyalarda yoritishga o'rgatish.
 - Trening- mavzu bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.
 - Baholash va tahlil etishga o'rgatish.
 - Muammoni aniqlash va yechimini topish, boshqaruv xususiyatini rivojlantirish.
 - Yangi strategiya va usullarni ishlab chiqish
9. Tashkillanishiga ko'ra
 - Pechatlangan
 - Elektron
 - Video-keys
 - Audio-keys

4. Loyiha metodi

Loyihaviy ta'lim pedagogika amaliyotida 300 yildan ortiq qo'llanilib kelmoqda.

Nemis pedagogi M.Knollning tadqiqotiga ko'ra, «loyiha» tushunchasining paydo bo'lishi XVI asrga taalluqli bo'lib, italiyalik me'morlarning me'morlikni fan deb e'lon qilib, uni o'quv fanlari darajasiga chiqargan holda o'z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog'liq.

- 💡 XVIII asr oxirida muhandislik kasblari paydo bo'lishi natijasida o'quv loyihasi dastlab Fransiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveysariyadagi, XIX asr o'rtalarida esa AQSHdagi texnika va sanoat oliy maktablarida tarqaldi.
- 💡 *Loyihalar usuli* «o'qitish usuli» didaktik toifa sifatida XIX asr boshlarida shakllandi. Bu davrda pragmatik pedagogika doirasida «erkin tarbiya» g'oyalari yuzaga keldi.
- 💡 Amerikalik pedagoglar V.Kilpatrik, E.Kollings va E.Parxerstning ishlarida rivojlantirildi, ular tahsil oluvchilarning nafaqat faol o'rganish faoliyati, balki birgalikdagi mehnat, hamkorlik asosidagi faoliyatini tashkil eta boshladilar.
- 💡 1911 yilda AQSH Tarbiya byurosi «loyiha» atamasini qonunlashtirdi va u amerika pedagogikasida yanada mustahkamlana boshladi.

Loyiha» atamasi ijtimoiy fanlar sohasiga texnika sohasidan o'tgan bo'lib, «**Loyiha** (lotincha-“projectus”dan tarjimada “oldinga tashlangan”) – aniq qoidalarga muvofiq u yoki bu soha holatini qayta qurishning asosiy g'oyasini anglatadi.

Ta'lim ma'nosidagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Loyihaviy ta'limning muhim belgilari:

- Muammoga yo'naltirilgan o'quv izlanishini tizimli tashkillashtirish o'quv muhitini yaratadi;
- Talabalarga ularni qiziqtirgan muammoni tadqiq qilish va uni hal etishda yo'naltirish va yordam berishda o'qituvchi o'rnini belgilovchi o'quv muhitini yaratadi;
- Fan bilimlarini mustahkamlashga va ularni rivojlantirishga yordam beruvchi o'quv muhitini yaratadi;
- Talabalarga mustaqil harakat qilish, (amaliyotga yo'naltirilgan) aniq yakuniy natija olishni ta'minlovchi o'quv muhitini yaratadi;
- Haqiqiy hayot bilan ta'limning mustahkam aloqasini o'rnatadi.

2. Loyihaviy ta'lim turlari.

Izlanuvchilik faoliyati xususiyatidagi o'quv loyihalarning turlari

1. **Tadqiqotchilik loyihalari** – bu ilmiy izlanish xususiyatiga ega bo'lib, quyidagi ishlarni bajarish va aniqlash nazarda tutiladi:

- muammoni dolzarbligi va ishlab chiqilganligini;
- Tadqiqot maqsadi;
- Faraz, vazifalar;
- Muammoni o'rganish usullari;
- Axborotni yig'ish va tahlil qilish;
- Tajriba o'tkazish;
- Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

2. Ijodiy loyihalar

Hamkoriy faoliyatda ishlab chiqilgan yangi mahsulotni ijodiy shakldagi (ijodiy hisobot, ko'rgazma, ishlab chiqarish xonalarini dizayni, videofilm, nashriy mahsulotlar – kitoblar, almanax, kompyuter sahifalaridagi jurnal, kompyuter dasturlari va b.) taqdimoti.

Ijodiy ish guruhi - bu (laboratoriyalar, ustaxonalar, konstruktorlik birlashmalari, redaksiyalar va boshqalar)

3. **Axborotli loyihalar** – o'quv jarayoni yoki boshqa buyurtmachilar uchun muhim bo'lgan axborotlarni yig'ishga yo'naltirilgan.

Loyihani ishlab chiqish turli manbalardan: monografiya, jurnal maqolalari, gazeta nashrlari, sotsiologik so'rovnomalar, elektron ma'lumotlarni izlash bilan bog'liq.

Loyiha natijasi – buklet, nashr, Internet sahifasi shaklidagi taqdim etilgan, tanlab olingan, tahlil qilingan, umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan axborotdir.

Qo'llash sohasiga bog'liq ravishda o'quv loyihalarni turlari

➤ **Ishlab chiqarishga oid (texnikaviy)** va ijtimoiy loyihalar. Bunda ishlab chiqarishning ijtimoiy tomonlarini (boshqaruv, uy-joy sharoitini yaxshilash va boshqa muammolarni) takomillashtirish uchun muhim bo'lgan muammolarni hal etish nazarda tutiladi.

Muammoni ishlab chiqish xususiyati bilan muvofiqlikdagi loyihalar

➤ Nazariy va amaliyga yo'naltirilgan loyihalar. Bunda kasb ta'limi yo'nalishidagi talabalar kasbiy pedagogika fanida tarbiyaga bo'lgan yondashuvlarni o'rganish asosida ijodiy guruhlarda o'zlarining shaxsiy tarbiyaning konsepsiyalarini ishlab chiqadilar.

➤ Amaliy xususiyatdagi loyihada aniq amaliy, ya'ni maktab yoki aniq o'qituvchining buyurtmasi bo'yicha muammoni hal etishga yo'naltiriladi (uslubiy loyiha). Bu loyihalar bitta loyihada o'z aksini topishi ham mumkin.

Masalan: "Menejment" fani bo'yicha mashg'ulotda bajarilgan nazariy loyiha va ishlab chiqarishning tashkiliy madaniyatini tadqiq va tahlil qilishga yo'naltirilgan loyiha "Magazinni maxsuslashtirish va savdo korxonasining tashkiliy madaniyati" videofilmini tayyorlash bilan olib boriladi va bu o'quv materialni sifatida qo'llaniladi.

O'quv fanlariga bog'liqlikda ishlab chiqiladigan loyiha turlari

➤ **Bir fanli loyiha** – bunda loyiha bir fan doirasida amalga oshiriladi.
➤ **Fanlararo loyiha** – bunda boshqa fanlar materiallari asosida aniq fan o'rganiladi.
➤ **Fan tashqarisidagi loyiha** – aniq fan doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan ishlar nazarda tutiladi.

Fanlararo va fan tashqarisidagi loyihalar talabalarda faol, mahsuldor faoliyatni ta'minlaydi.

Davomiyligi, bajarish vaqti bo'yicha loyihalar:

➤ Qisqa muddatli loyiha- bu bir necha mashg'ulotlarda yoki talabalarning mustaqil ish jarayonida ishlab chiqiladi.

➤ O'rta muddatli loyiha – bu bir haftadan bir oygacha ishlab chiqiladi.

➤ Uzoq muddatli loyiha – bir va bir necha oygacha ishlab chiqiladi.

Aniq fanni o'rganishda qisqa muddatli loyiha qo'llaniladi.

Uzoq muddatli loyihalarga diplom va kurs ishlari taalluqli bo'ladi.

O'quv loyihaviy faoliyatning bosqichlari

🔧 **Tayyorgarlik bosqichi:** loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish – *auditoriya* ishi.

🔧 **Loyihani bajarish bosqichi** – *auditoriyadan* tashqari ishi.

🔧 **Yakunlovchi bosqich:** loyiha taqdimoti, talabalar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiya – *auditoriya* ishi.

Loyiha ustida ishlashni tashkillashtirish

1-bosqich - muammoni izlash yoki shakllantirish. Muammo manbasi bo'lib quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Ishlab chiqarishga sayohat va uning faoliyatini tahlili, yechilmagan muammolarni anqilash;

- O'qituvchi tomonidan aniq ijtimoiy va ishlab chiqarish vaziyatlari bayoni;

- O'quv jarayonini takomillashtirishga oid aniq vazifalar (uslubiy va didaktik vositalar, qo'llanmalar, tavsiyalar, talabalarni mustaqil ishlashlari uchun materiallar, alohida savol va mavzular bo'yicha videofilmlarni ishlab chiqish).

Bu bosqichda o'qituvchini asosiy vazifasi – talabalarni muammoni anglab etishga olib chiqish, uni yechishga bo'lgan motivatsiyani va o'quv loyihaning mahsulini-aniiq natijani olishni yaratish hisoblanadi.

2-bosqich, ijodiy guruhlarini shakllantirish, juftlikda va guruhli sharoitda amalga oshiriladi.

Loyiha turiga qarab (ijodiy laboratoriyalar, ijodiy ustaxonalar, konstruktorlik birlashmalar).

3-bosqich, o'quv loyiha ustida ishlashni rejalashtirish:

- Axborot manbalari aniqlanadi;
- Axborot yig'ish va tahlil qilish yo'llari aniqlanadi;
- Natijalarni taqdim etish yo'llari (hisobot, aniq mahsulot) aniqlanadi;
- Mahsulotni baholash mezonlari aniqlanadi;
- Ijodiy guruh vazifalari aniqlanadi.

4-bosqich, axborotni izlash va yig'ish, bunda asosiy talab turli manbalardagi axborotlar (adabiyotlarni o'rganish, anketalar, intervyu, so'rovnomalar, kuzatish, ommaviy axborot vositalarini o'qish va tahlil qilish) hisoblanadi.

5-bosqich, axborot tahlili, loyihani ishlab chiqish uchun olingan materiallarning hamkori muhokamasi amalga oshiriladi.

6-bosqich, loyihani rasmiylashtirish va taqdim etish. Natijalarni rasmiylashtirish turlicha bo'ladi: yozma hisobot, amaliy tavsiyanomalarni (kompyuter variantida), videofilm, texnik qurilmani maketini tayyorlash.

7-bosqich, ish natijalarini tahlil qilish va baholash. Bunda:

- Loyiha mualliflarining o'z faoliyatlari natijalarini o'zi tahlil qilishi;
- Loyiha sifatini o'qituvchi va boshqa talabalarni baholashi.

2. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma

1. Siz taklif va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn) asosida ifodalang.
2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5-6 so'z) bilan asoslang.
3. Loyiha maqsadingizni: uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif) orqali ko'rsating.
4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.
5. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.
6. Vazifani yechimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.
7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi, xulosalarni shakllantiring.
8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.
9. Baholang:
 - loyiha sifatini,
 - loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o'tish yo'llari.
10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (hohishingizga ko'ra).

4.Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. MS Power Point da taqdimotga **tayyorlash jarayoni** quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;
- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarni mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo'shish;
- slaydlarning belgilashni tanlash;
- zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

2. Slaydlarni **texnik namoyish etish** quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

- Slaydlar *miqdori* (8-12).
- *Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari*:
 - birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, № o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;
 - oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
 - boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
- Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.

3. Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi

- Agarda, matn ogʻzaki boʻlsa, quyidagicha boʻlishi zarur:
 - yuqori axborotli;
 - bogʻlovchili;
 - aniq va qisqa;
 - oddiy sintaktikli (...quyidagilarga eʼtibor bering, quyida taqdim etilayotgan... roʻyxatlar kabi aylantiruvchi kirish soʻzlari kamroq boʻlishi) - ularni barchasini maʼruzachini oʻzi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar oʻrni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;
 - (asosan termin va taʼriflarda), tushunarli, mantiqiy, aniq boʻlishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.
 - Ovoz tiniq boʻlishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchini ovozini eshitib boʻlmaydi. Eng yaxshisi maʼruzachini jonli ovozi hisoblanadi.
 - *Rasmlar* aniq va yetarlicha kattaroq boʻlishi zarur. Rasmlarni oʻlchamini katta qilishga urinmang –faqatgina Siz sifatni yoʻqotasiz.
 - *Video- tasmlar* taqdimot oynasini uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli boʻlishi kerak. Bezaklar chalgʻitishi mumkin.
 - *Jadvallar* ajratuvchi maʼlumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlardan, jadvallar nomlanishi zarur.
 - Jadvallarni haddan ziyod maʼlumotlar bilan toʻldirish kerak emas! Jadvalga qancha koʻp maʼlumotlar kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin boʻladi.
 - Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada oʻtirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.
 - *Chizmalar* bir boʻlimdan boshqa boʻlimga aniq va mantiqiy ravishda oʻtishga moslashtirilishi kerak. Oʻtish chiziqlari ekranda yaxshi koʻrinishini tekshiring.

Baholash mezonlari va koʻrsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

- Loyiha mahsuli - Maʼlumotnoma (eng yuqori 10 ball);
- Hisobot (eng yuqori 8 ball);
- loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball);
- ogʻzaki taqdimot (eng yuqori 2 ball).

3. Oʻquv fani boʻyicha taʼlim texnologiyasini ishlab chiqish qoidasi

Oʻquv fani boʻyicha taʼlim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi: Taʼlim texnologiyasini ishlab chiqish qoidalar

Maqsadni belgilash vaqtida oʻquv fanining tuzilishi va mazmuni, fan boʻyicha oʻquv axborotining hajmi va murakkabligini hisobga olish lozim.

DTS tomonidan belgilangan, berilgan sharoitda, oʻquv rejada belgilangan vaqtda taʼlim maqsadlariga erishishni kafolatlovchi oʻqitish, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning yoʻl va vositalarini tanlashga konseptual yondashuv talab etiladi.

Taʼlim texnologiyasining tuzilishi quyidagi qismlardan iborat boʻladi:

1. Kirish-jamiatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillarining chuqurlashuvi sharoitida taʼlimni texnologiyalashtirishning dolzarbligi asoslanadi; oʻquv fani boʻyicha taʼlim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi va maʼruza amaliy, seminar mashgʻulotlarida tanlangan taʼlim modellari tavsif beriladi.
2. Taʼlim texnologiyasining konseptual asoslari - oʻquv fanining maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, oʻquv fani boʻyicha oʻquv dasturiga mos auditoriya soatlarining hajmi va faoliyat turlari boʻyicha taqsimlanishi; oʻquv fanining mazmuni: oʻquv fanining oʻquv dasturiga mos ravishda oʻquv fanining mavzuiy mazmuni izchil bayoni yoritiladi; oʻquv mashgʻulotlarida taʼlim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari: bunda oʻqitish, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning yoʻl va vositalarini tanlash ishini amalga oshirish asosida yotuvchi taʼlim texnologiyasini loyihalashtirishga konseptual yondashuv belgilanadi.

Oʻquv mashgʻulotida taʼlim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalar

Oʻquv mashgʻulotida taʼlim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita koʻrinishida amalga oshiradi

Oʻquv mashgʻuloti texnologik xaritasi – oʻquv mashgʻulotida taʼlim texnologiyasi tuzilishining jarayonli (protsessual) bayoni aks etgan hujjat. Oʻquv mashgʻulotini oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritadi

Oʻquv jarayonini tashkiliy-didaktik taʼminotini ishlab chiqadi va uni texnologik xaritaga ilova koʻrinishida rasmiylashtiradi

Texnologik xaritaga ilova oʻz ichiga quyidagilarni oladi:

- talabalar bilimini faollashtirish maqsadida qo'llaniladigan savollar ro'yxati;
- guruhlarda ishlash uchun yo'riqnoma, o'quv faoliyati natijasida talabalar tayanishi mumkin bo'lgan qoidalar (aqliy xujum qoidasi, guruhlarda ishlash qoidasi, munozara ishtirokchilariga eslatma);
- o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida foydalaniladigan slaydlar, jadvallar va boshqa vizual materiallar;
- munozara o'tkazish uchun qo'shimcha savollar;
- guruhlarda va yakka holdagi faoliyatni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari.

GLOSSARIY (Izohli lug‘at)

- Davlat va jamiyat** – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.
- Davlat va jamiyat** - uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo‘lishini va hayot o‘zgarishlariga moslashuvchanligi ta’minlaydi.
- Didaktika**-pedagogikaning ta’lim jarayonini umumiy qonuniyatlarini o‘rgatuvchi qismi bo‘lib, «didasko» – «o‘qitish», «didachol»-o‘rgatuvchi degan ma’nolarni bildiradi.
- DTS (davlat ta’lim standarti)** - ta’lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi.
- Ishlab chiqarish** – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.
- Yo‘ldosh aloqa tizimlari** - Ko‘plab yer ustidagi stansiyalarni va yer sun‘iy yo‘ldoshdagi retrenslyatorlarni o‘z ichiga oladi.
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** - 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan huquqiy hujjat.
- Kasb ta’limi jarayoni** - pedagogik jarayonning muhim qismi, u o‘qitish, bilim berish, ko‘nikma va malakalar hosil qilish bilan birga kasbga yo‘naltiradi.
- Kasb ta’limi metodlari** - talabalarni bevosita kasbga yo‘naltiruvchi usullar majmuasi.
- Kasbiy ta’lim uslubiyoti** - talabalarni kasbga yo‘naltirishning shakl, metod va vositalarining birligi.
- Kompyuterlar** - kompyuter texnikasi hozirgi vaqtda tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Bu eng, avvalo, operativ xotira hajmi, vinchesterli disketalar, tashqi xotirasi hajmi, kompakt optik disklar hajmi kabi texnik xarakteristikalarining yaxshilanishiga xos bo‘lib, ularda tezkorlik oshmoqda. Keyingi vaqtda turli optik xotiralovchi qurilmalar (video-disklar, optik disklar) keng tarqalmoqda.
- Ma’lumot** – ta’lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma hamda shakllangan dunyoqarashlar majmui.
- Modullik** - o‘quv kursiga bog‘liq bo‘lmagan holatda shaxsiy, hamda gruppaga talabiga javob beradigan o‘quv rejasini amalga oshiradi.
- Masofaviy o‘qitish** - yangi va ancha progressiv bo‘lgan o‘qitish shaklidir. Bu usulni turli xil muassasalariga tatbiqi, xususan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy sohalarga tadbig‘i talaba va o‘qituvchilarning ilg‘or dunyo ilmiy maktablarining yuqori sifatli o‘quv uslubiy ishlanmalari, zamonaviy va so‘nggi axborotlardan qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish imkoniyatlarini beradi. Bularning barchasini e’tiborga olgan holda oliy va o‘rta ta’lim vazirligi ustoz fondi qiyofasida jahon instituti bilan oliy ta’limda masofaviy o‘qitish usuli komponentlarini tatbiq qilish haqida kelishuv tuzildi.
- Pedagogik texnologiya** - ta’lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig‘ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko‘rsatmalarning majmuidir.
- Pedagogik texnologiya** - bu o‘quv jarayonini amalga oshirilishining sermazmun texnikasidir (G. Bepalko).

- Pedagogik texnologiya*** - o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir.
- Texnologiya*** - bu san'at, mahorat va qobiliyat, ishlov uslublarining majmuidir (Shepel).
- Ta'lim texnologiyasi*** - bu didaktik tizimning asosiy protsessual qismidir (Usmonov).
- Pedagogik texnologiya*** - bu o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilish bo'yicha barcha tavsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi. U o'quvchi va o'qituvchilarga qulay sharoitlar yaratishi shart. (Monaxov)
- Pedagogik texnologiya*** - bu ta'lim shakllarini optimizatsiyasini o'ziga maqsad qilib olgan inson hamda texnik resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish, qo'llash va aniqlashning hamda bilimlarni o'zlashtirishning uslublaridir. (YUNESKO)
- Pedagogik texnologiya*** - pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan shaxsiy, intellektual, uslubiy vositalarning amal qilish tartibidir. (Klarin)
- Ilmiy aspekt*** - pedagogik texnologiya pedagogika fanining qismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqib o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.
- Protsessual-tavsifiy aspekt*** - ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.
- Protsessual-amaliy aspekt*** - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalariga amal qilish.
- Sun'iy intellekt tizimlari*** - sun'iy intellekt elementli EHMning odatdagi EHMdan farqi shundaki, odatdagi EHMLar faqat statistik ma'lumotlarni, sun'iy intellekt tizimlari esa bilimlarni ishlab chiqadi.
- Texnologik jadval*** - texnologik jarayonning shartli tasviri, uning alohida funksional elementlariga bo'linishi va ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning belgilanishi.
- Texnologik xarita*** - jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, bunda maqbul bo'lgan vositalar ko'rsatiladi (bu odatda grafik shaklda ifodalanadi).
- Texnologik nuanslar*** - adabiyotda odatda pedagogik tizim tushunchasi pedagogik texnologiya sifatida ko'rsatiladi. Lekin pedagogik texnologiya kengroq ma'nodagi tushuncha bo'lib, o'ziga xos pedagogik faoliyatning ob'ekt va sub'ektlarini oladi.
- Ta'lim tamoyillari*** - umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish hamda o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishning asosiy qonun qoidalari yig'indisidir.
- Texnologiya*** - bu bir ishda, mahorat va san'at qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat.
- Tejamkorlik*** - o'quv maydonlardan, texnik vositalardan, transport vositalardan unumli foydalanish, o'quv axborotlarini to'plangan va bir xillikka keltirilgan holda ifodalash hamda ularga erishilgan mutaxassislarni tayyorlash xarajatlarni kamaytiradi.

- Texnologiklik** - ta'lim berish jarayonida insonni jahon past industrial fazoga yurishtirishga imkon beradigan yangi erishilgan informatsion va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.
- Telekonferensiyalar** - telekonferensiyalar zamonaviy ATlarning amalga oshirilishiga misol bo'la olmaydi. Telekonferensiyalar o'tkazish uchun quyidagi apparaturalar foydalaniladi: terminallar, televeziyon kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari.
- Texnika muammolar** - bular ta'lim tizimida foydalaniladigan elektron hisoblash va mikroprotssessor texnikasiga qo'yiladigan talablarni, uni qo'llanish xususiyatlarini belgilaydi;
- Tayyorgarlik muammolari** - bular o'qituvchi va o'quvchi-talabalarning hisoblash texnikasidan foydalanish o'quvchilari bilan bog'liq.
- Uzluksiz ta'lim** - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.
- Umumiy pedagogik daraja** - umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiya) texnologiya berilgan hududdagi ta'lim maskanida ta'limning ma'lum darajasidagi to'liq umumta'lim jarayonini tavsiflaydi.
- Fan** - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.
- Chegaralangan daraja** - chegaralangan texnologiya-ta'lim-tarbiya jarayonning alohida qismlarini ifodalab, xususiy didaktik va tarbiya masalalarini yechadi (faoliyatning alohida turlarini texnologiyasi, tushunchalarning shakllanishi, yangi bilimlarni o'zlashtirish, materialni nazorat qilish va qaytarish texnologiyasi).
- Shaxs** - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.
- EHM tarmoqlari** - hozirgi vaqtda bilimlarning barcha sohalarida EHM yoki kompyuter (lokal yoki global) tarmoqlari keng tarqaldi.
- Elektron pochta** - «Elektron pochta» nomining o'zidayoq mazkur tushunchaning mazmuni ochib berilgan, ya'ni korrespondensiyalarni almashishi uchun pochtaga o'xshash ravishda axborot uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya'ni bosma materiallar, jadvallar hamda jurnallarni uzatish. Elektron pochta qog'ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo'lib, aslida hujjatli xabarlarni to'plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.
- Programma muammolari** - bular ta'lim tizimida foydalanish uchun programma ta'minotining tarkibi va turlarini, ularning qo'llanish tarkibi va xususiyatlarini belgilaydi;
- Egiluvchanlik** - o'ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o'qitish imkoniyatini beradi.
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni** -1997 yil 29 avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan huquqiy hujjat.
- O'qituvchilarning yangi vazifalari** - masofaviy o'qitish o'qituvchining vazifalarini kengaytiradi va yangilaydi. O'qitilayotgan kurslari doimo takomillashtirish, ijodiy faolligini yuqorilashtirish va malakasini, kiritilgan yangiliklar va innovatsiyalarga mos bilim jarayonini muvofiqlashtirishi zarur.
- O'qitish mazmuni** - o'qitish jarayoni, usullari va tashkiliy tartibini amalga oshirilishi uning tarkibi bilan ifodalanadi.

- O'qitish ob'ekti*** - masofaviy o'qitish ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchi ushbu usulda ta'lim oluvchilar ob'ektlari bo'ladi.
- O'qitish sub'ektlari*** - masofaviy o'qitish sub'ektlari o'qituvchilar hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim jarayonining yuqori samarasini ta'minlashda asosiy bo'g'indir. Masofaviy o'qitish o'qituvchi faoliyatining muhim ixtisosligida kompyuter terminini kiritish zarurligini keltirib chiqaradi. Bu - o'qituvchi maslahatchi, u fundamental informatika va telekommunikatsiyalar asoslarini bilishi kerak. Uning bilimligini uzuvchi xarakterga ega bo'lishi kerak.
- O'qitish usullari*** - masofaviy tartib o'z ichiga 5 ta umumdidaktik o'qitish usullarini oladi: informatsion-retseptiv, reproduktiv muammoviy ifoda etish, evristik va tadqiqot. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakat, pedagogik aktlarning butun to'plamlarini o'ziga qamrab oladi.
- O'qitish usuli*** - o'qitish maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro harakati ta'siri me'yorlar tizimi to'g'risida nazariy tasavvurlar beradigan didaktik turkumdir.
- O'qitish mazmuni*** - bu o'quv informatsiyaning tarkibi, tuzilishi va ma'lumoti hamda masalalar, topshiriqlar va mashg'ulotlar to'plami, ular kasbiy malaka hamda idroklarini shakllantiradi, mehnat faoliyatining dastlabki tajribasini yig'ishga imkon beradi.
- O'qitish vositalari*** - masofaviy o'qitish ta'limi jarayonida an'anaviy ta'lim bilan birga innovatsion o'qitish vositalaridan foydalaniladi. Ular kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya qo'llashga hamda ta'minot texnologiyasi sohasida oxirgi erishilgan natijalarga asoslangan.
- O'quv-ilmiy moddiy asosi*** - o'quv dasturlariga mos bo'lgan, o'qitish uchun zarur moddiy va texnikaviy to'plam.
- Qisman pedagogik daraja*** - qisman predmetli pedagogik texnologiya «qisman metodika» tushunchasini beradi, ya'ni bir fan doirasida tarbiya va ta'lim, uslub va vositalar majmuidir.
- Qurshov*** - bir vaqtda ko'p ishtirokchilarga o'quv informatsiyasi bo'yicha murojaat qilish, tarmoq yordamida o'zaro axborot almashinuvini to'g'ri tashkil qilish.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: Sharq., 1997.
2. I.A.Karimov. Yangi fikrlash va ishlash davr talabi. №5, «O'zbekiston», T.,-1997.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.,-1999.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni / T.: “Sharq”, 1998.
6. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi qonuni / T.: “Sharq”, 1998.
7. Talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to’g’risidagi Nizom.
8. «Kasbiy pedagogika» fanining namunaviy dasturi. TTESI, T., 2012.
9. Tolipov O‘., Barakayev M., Sharipov SH. “Kasbiy pedagogika” – T., 2001 yil.
10. Xadjaboev A., Xusanov I. “Kasbiy ta’lim metodologiyasi” – T., 2007 yil.
11. Barakayev M., Qurbanova G. ““Kasbiy ta’lim” yo’nalishi bo’yicha pedagogik amaliyotni o’tkazish metodikasi”. – T., 2007 yil
12. G’aybullaev N.R. va boshqalar. “Pedagogika”. – T., 200 yil
13. Ochilov M. “Muallim – qalb me’mori” – T., 2001 yil.
14. Ziyamuhamedov B., Abdullaeva Sh. “Pedagogika” – T., 2006 yil.
15. Barakayev M. va boshqalar. “Zamonaviy ta’lim tizimida axborotlar texnologiyasi” – T., 2001 yil.
16. Davlatov K. va boshqalar “Mehnat va Kasb ta’limi nazariyasi hamda metodikasi” – T., 1992 yil.
17. Karimova V. “Psixologiya” – T., 2002 yil.
18. “Barkamol avlod orzusi” – T., 1999 yil.
19. Roziqov O. va boshqalar “Ta’lim texnologiyasi” –T., 1999 yil.
20. Oliy ta’lim (lug’at ma’lumotnoma) – T., 2003 yil.
21. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” – T., 1993 yil.
22. Tillayeva G. “Ma’naviyat va Komil inson tarbiyasi” – T., 2006 yil.
23. “Ta’lim tarbiya sifati va qirralari” – T., 2004 yil.
24. Azizxodjaeva N. “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” – T., 2004 yil.
25. Tolipov O‘.Q., Usmanbaeva M. “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari” – T., 2006 yil.
26. Mirsaidov K.J. “Maxsus fanlarni o‘qitish va ishlab chiqarish ta’limi” – T., 1996 yil.
27. Козырев В.П. Становление и развитие курса методики преподавания технических дисциплин. Межвузовский сборник научных трудов-М, 1990-42-53s.
28. Соколов В.А. Основные этапы развития инженерно-педагогического образования. Межвузовский сборник научных трудов-. М.,-1990. С 3-10.
29. Заплаткин И.В., Мадрахимов Х.С. Подготовка инженерно-педагогических кадров в Узбекистане. С 10-14.
30. Моминбаев В.К. Состояние и развитие проблемы подготовки инженерно-педагогических кадров для системы профтехобразования. С -69-73.
31. Mamarajabov Sh., Gatayev X., Sattorov V. Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi.- TTYESI.- 135 b.
32. Usmonboyeva N. Kasbiy pedagogika. T.-2015y.
33. www.bilimdon.uz. -O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligining veb sayti.
34. [www.de.uz-Masofaviy ta’lim tizimiga bag’ishlangan veb sayt.](http://www.de.uz-Masofaviy%20ta%27lim%20tizimiga%20bag%27ishlangan%20veb%20sayt)
35. www.plekhanov.ru.-Plexanov nomidagi Rossiya iqtisod akademiyasining veb sayti.
36. www.glef.org. Djordj Lukasning Ta’limning fondi.

MUNDARIJA

1	Kirish.....	3-5
2	I. BOB «KASBIY PEDAGOGIKA» FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN VAZIYATLI TOPSHIRIQLAR, KEYS TOPSHIRIG‘I VA O‘QUV LOYIHALARI.....	5-16
	1. Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limini rivojlantirishning yangi bosqichida kasbiy pedagogikaning o‘rni.....	5
	2-Mavzu: Kasbiy pedagogika fanining falsafiy-metodologik asoslari	5
	3- Mavzu: O‘zbekistonda va chet elda kasbiy pedagogikaning rivojlanishi.....	5-6
	4- Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi islohotlari.....	6
	5- Mavzu: Uzluksiz ta’lim tizimida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining o‘rni va ahamiyati.....	6-7
	6- Mavzu: Ta’limni standartlashtirish. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni, maqsad va vazifalari.....	7
	7- Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari.....	7
	8- Mavzu: O‘rta maxsus kasb hunar ta’limi bitiruvchilarini ishlab chiqarishga moslashuvi.....	7-8
	9- Mavzu: Ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni amalga oshirish jarayonlari.....	8
	10- Mavzu: Kasb pedagogikasining didaktik prinsiplari	8
	11- Mavzu: Kasb-hunar ta’limi jarayonining ishtirokchilari va jarayonlarni loyihalashtirish.....	9
	12-mavzu: Kasb-hunar ta’limi mazmuni.....	9
	13-mavzu: Kasbiy pedagogikada ta’lim metodlari.....	9
	14-mavzu: Kasb-hunar ta’limida ta’lim vositalarining o‘rni.....	9-10
	15-mavzu: Ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish.....	10
	16-mavzu: Dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.....	10
	17-mavzu: Kasb ta’limi o‘qituvchisining uslubiy ishlari.....	10
	18-mavzu: Pedagogik faoliyat va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	10
	19-mavzu: Pedagogik qobiliyatlar tizimi va kommunikativ qobiliyat.	11
	20-mavzu: Kasb ta’limida muloqot qobiliyati.....	11-12
	21-mavzu: Kasbiy pedagogik mahorat va muloqot uslublari.....	12
	22-mavzu: Kasbiy pedagogik faoliyatning konseptual asoslari. Kasbiy ta’lim o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar.....	12-13
	23-mavzu: O‘quv maqsadlari va uni ishlab chiqish.....	13
	24-mavzu: Kasb ta’limi dual tizimi.....	13
	25-mavzu: Kasb-hunar ta’limini boshqarish.....	13
	26-mavzu: O‘qituvchi va rahbarlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv mahoratlarini shakllantirish.....	13
	27-mavzu: O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (O‘MKHT) kasblari va mutaxassisliklarini turkumlash.....	13-14
	28-mavzu: Kasb-hunar ta’limi muassasalarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti.....	14
	29-mavzu: KHK o‘quvchilarini milliy mafkura ruhida tarbiyalash....	14

	30-mavzu: Kasb-hunar ta'limida guruh rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish.....	14
	31-mavzu: Kasb-hunar ta'limini umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va fan bilan integratsiyalash.....	14
	32-mavzu: Kasb-hunar ta'limida o'quvchi shaxsini shakllantirish.....	14-15
	33-mavzu: Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalar.....	15-16
	34-mavzu: Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish.....	16
	35-mavzu: Muammoli ta'lim va didaktik o'yin texnologiyalarining kasb-hunar ta'limidagi ahamiyati.....	16
	36-mavzu: Kasb ta'limi pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish.....	15
	“Samarali metodni tanlash” mavzusidagi KEYS-STADI.....	17-33
	“Kasb-hunar ta'limi muassasalarida tarbiyaviy ishlar nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi o'quv loyihasi.....	34-50
3	II. BOB «KASBIY PEDAGOGIKA» FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLARDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR.....	50-74
	1. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari.....	50-54
	2. Organayzerlardan foydalanish mahorati.....	55-59
	3. Kasb ta'limida keys texnologiyalardan foydalanish.....	59-62
	4. Loyiha metodi.....	63-67
4	Glossariy.....	68-71
5	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	72